

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

«Pedagogika va psixologiya» kafedrası

«5111000 - kasb ta’limi (ijtimoiy ish)» yo‘nalishi

DAK raisi

____ S.K.Annamuratova
«____» ____ 2014y.

Kafedra mudiri

____ Z.H.Qosimova
«____» ____ 2014y.

BITIRUV MALAKAVIY ISH

**Mavzu: O‘qituvchi shaxsini shakllantirishning pedagogik - psixologik
asoslari**

Bajardi: 4-kurs talabasi S.Erkinova

Ilmiy rahbar: _____

*Mazkur bitiruv malakaviy ishi kafedraning 2014 yil ____dagi ____-sonli
yig‘ilishida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.*

Toshkent – 2014

Mundarija

Kirish.....	3
--------------------	----------

I. Bob. O‘qituvchi shaxsini shakllantirish - pedagogik muammo sifatida

1.1. O‘qituvchi shaxsini shakllantiruvchi psixologik omillar tavsifi.....	11
1.2. O‘qituvchi shaxsini rivojlantiruvchi pedagogik bilimlar tizimi.....	23

I. Bob. O‘qituvchi shaxsini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari.

2.1. O‘qituvchi faoliyatida uchraydigan ziddiyatli holatlar tasnifi va tahlili.....	36
2.2. O‘qituvchi shaxsini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik-psixologik jarayonlarning samaradorligi.....	49
Xulosa.	60
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.	73
Ilovalar.	75

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Ajdodlarimizning komil inson haqidagi axloqiy talablar majmuasi sharqona axloq kodeksi, O'zbekiston Respubliksi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida sog'lom avlod tarbiyasi haqida o'lmas g'oyalar keltirilgan. Har bir inson shaxs sifatida turlicha namoyon bo'lar ekan, uning ijtimoiy voqelikka, mehnatga, kishilarga, jamiyatga bo'lgan munosabati ham, faollilik darajasi, axloq-odob borasidagi yetukligi ham turlichadir. Shaxs qaysi jamiyatda yashasa o'sha jamiyat qonun-qoidalariga asosan kamol topadi. Pedagogika shaxsning kamolotga yetishini murakkab va ziddiyatli jarayon deb biladi. Shaxsning kamolga yetishida irsiyat, muhit, maqsadga muvofiq amalga oshiriladigan ta'lim- tarbiya va nihoyat o'zining mustaqil faoliyati ham muhim ahamiyatga egadir. Shunday qilib, ijtimoiy muhitning shaxs shakllanishidagi o'rni nihoyatda beqiyosdir. Irsiy belgilarning rivojlanishi ham insoniy-ijtimoiy muhitda yashashga bog'liqligiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Inson bolasi, agar ijtimoiy-insoniy muhitga emas, boshqa muhitga, aytaylik hayvonlar muhitiga tushib qolsa, unda irsiy belgilarning ayrim biologik ko'rinishlari saqlanadi, lekin insoniy fikr, faoliyat, xatti-harakat bo'lmaydi (1920-yilda Hindistonlik doktor Singx Midnapur shahri yaqinidagi bo'ri uyasidan topib olgan qizchalar Kamola va Amola hayoti bunga misol bo'ladi)¹.

Irsiyat nishonalari shaxsni shakllantirishning obyektiv omillariga kiradi. Odamlar organizmining anatomik tuzilishni, fiziologik harakatni, asab tipini, asosiy shartsiz reflekslarni meros qilib oladilar. Odam shaxsi va xulqining rivojlanishida biologik omillarning rolini yuksak baholab, shaxsni naslga bog'lab o'rganuvchi oqimlar, dunyoqarashlar mavjud. Biologik omillarning inson shakllanishidagi o'rni muhim va o'ziga xos, irsiyatning ahamiyatini inkor etib bo'lmaydi, insonga xos xususiyatlar – aqliy va jismoniy mehnat qobiliyati, tafakkur va nutq ham tug'ma o'tishi mumkin, lekin bu tug'ma

¹ Pedagogika.O'quv qo'llanma. A.Munavvarov tahririda. -T., "O'qituvchi", 1996, 26-bet.

imkoniyatlar rivojlanishi uchun inson bolasi insoniy muhit, odamlar orasida yashashi, odamlar bilan aloqa qilishi, ijtimoiy hayotda qatnashishi va ma'lum xulq- odob qoidalariga amal qilishi lozimdir. Ijtimoiy muhitning buyuk insonlar shakllanishidagi o'rni muhim bo'lib, Alisher Navoiy - shoir, Eynshteyn –fizik, Ulug'bek –astronom, Ibn Sino –tabib bo'lib tug'ilmagan, albatta. Ulardagi qobiliyat kurtaklarining rivojlanishi, iste'dodga aylanishida ijtimoiy muhit, ta'lim- tarbiya muhim rol o'ynagan. Davlatimizning barkamol inson tarbiyalash borasidagi siyosatiga ham shaxs shakllanishida muhitning o'rni muhimligini ko'rsatadi. Ta'lim- tarbiya insonning shakllanishida yetakchi rol o'ynaydi, ta'lim- tarbiya natijasida irsiyat va muhitning stixiyali ta'siri bera olmaydigan o'qish, yozish, mehnat, malaka va ko'nikmalar egallanishi mumkin .

Shunday qilib, shaxs deganda ruhiy jihatdan, o'z xususiyatlari va sifatlari bilan boshqalardan farq qiladigan muayyan jamiyatning a'zosi tushuniladi. Shaxs- muayyan ijtimoiy guruhning vakili bo'lgan, biror faoliyat turi bilan shug'ullanadigan, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'ladigan, o'ziga xos individual- psixologik xislatlarga ega bo'lgan konkret inson . Inson shaxsining eng xarakterli tomonlaridan biri esa uning individualligidir. Individuallik deganda shaxs ruhiy xususiyatlarining qaytarilmaydigan birikmasi tushuniladi. Individuallik tarkibiga xarakter, temperament, ruhiy jarayonlarning o'tib borish xususiyatlari, hissiyotlar, faoliyat motivlari, tarkib topgan qobiliyatlar kiradi. Shuningdek, shaxs rivojlanishida “faoliyat”, “faollik” tushunchalarining o'rni beqiyos. Buyuk pedagoglar ham o'z sohalarida yuksaklikka erishish uchun tinmay mehnat qilganlar. Zero, inson o'z intilishi va faolligi bilan yuksak cho'qqilarga, ko'p narsalarga erishishi mumkin, qobiliyat va iste'dodni royobga chiqarish uchun ham o'z ustida ishlashi zarurdir. Demak , o'qituvchi faoliyati passiv jarayon bo'lmay, u ongli ravishda boshqariladigan faol jarayondir. Ya'ni faoliyat –o'qituvchi ongi va taffakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli- tuman ehtiyojlardan kelib chiqadigan hamda tashqi olamni va o'z-o'zini o'zgartirish va takomillashtirishga

qaratilgan o'ziga xos faoliyat shaklidir.

O'qituvchilik alohida kasb bo'lib, u har bir mutaxassisdan yuksak darajada g'oyaviy-siyosiy yetuklikni intellektual barkamollikni va intiklopedik ma'lumotlilikni, insoniy aql va ezgulik urug'ini tarqatuvchi dehqon va bog'bon sifatida oliyjanob shaxs bo'lishini talab etadi. Hozirgi zamon pedagogikasi fani har bir o'qituvchidan kasbiy jihatdan yetuk bo'lishni va pedagogik mahorat va qobiliyatni, kasbiy madaniyatni to'liq egallashni talab etmoqda. Bundan esa pedagogik mahoratga va qobiliyatga, texnikaga ega bo'lmasdan turib haqiqiy o'qituvchi bo'lish mumkin emas degan tushuncha kelib chiqadi. O'zida pedagogik mahoratni va qobiliyatni umumlashtirgan inson bolalarni seva oladi, ular uchun jonini fido qiladi, ularga haqiqiy ustoz bo'la oladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi-murabbiylarning pedagogik-psixologik nazariyalarning asosini bilishi, mukammal egallashi hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Shu bois bu masalaga alohida yondashuvni amalga oshirish har bir bo'lg'usi o'qituvchidan talab etiladi.

Bugungi kunda iqtisodiy va siyosiy sohalardagi barcha islohotlarning asosiy maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilishdan iboratdir. Shu jihatdan ham ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy istiqbol g'oyasini o'zida mujassam etgan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Respublikamiz hukumati xalq ta'limi sohasida o'rta qoyayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. Ta'lim-tarbiya jarayonida talaba-o'quvchilarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan. Darhaqiqat, xalqimizning kelajagi, mustaqil O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom,

barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir. Shu bois mamlakatimizning istiqlool yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq buyuk madaniyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Zamonaviy o'qituvchiga birgina umumiy madaniyatning o'zi kifoya qilmaydi. Shunindek, maxsus bilimlar va malakalar asosida bolalarni kuzatish, ularning o'sishidagi muhim narsalarni jamiyatda vujudga kelgan asosiy ijtimoiy g'oyalar taqqoslash, ta'lim –tarbiya jarayonini rivojlantirish yo'llari va usullarini aniqlash, turli vositalar bilan tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish, tahlil qilish, pedagogik izlanishlar va yutuqlarni ilmiy jihatdan bir tizimga solish maqsadga muvofiqdir. Respublikamiz hukumati oliy va xalq ta'limi sohasida o'rta qo'yayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. Yangi iqtisodiy sharoitda ta'lim-tarbiyadan ko'zga tutilayotgan maqsadlarga yetishish, talaba- o'quvchilarning xilma-xil faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan.

Xalqimizning kelajagi, Mustaqil O'zbekistonning istiqloli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarliga, fidoiyligi, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Shu munosabat bilan pedagog-o'qituvchilar mahoratini oshirish, tashkil etishga qayta tayyorlash ishi davlat va jamiyatning diqqat markaziga qo'yilmoqda. O'qituvchilarni falsafiy jihatdan keng fikrlavchi, yuksak mahoratli, mulohazali bo'lishlariga e'tibor berilmoqda. Shuni aytish kerakki, o'qituvchilik sharaflilik lekin murakkab kasbdir. Yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun pedagogik nazariyaning egallashning o'zigina yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun-qoidalar, umumlashtirilgan uslubiy g'oyalar bayon etiladi. O'qituvchi faoliyati jarayonida pedagogik nazariyalarga mos kelmaydigan vaziyatlar uchrab turadi. Bu esa o'qituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagogik mahorat va

ijodkorlikni talab etadi. Shuning uchun ham Mustaqil O'zbekiston davlatining umumiy ta'lim muassasalarida ishlaydigan pedagog, pedagog faoliyatiga qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon, milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni, dunyoviy, diniy, bilimlarni mukammal egallagan, ma'naviy barkamol, O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida taraqqiy etishiga ishonadigan, vatanparvarlik burchini to'g'ri angladan e'tiqodli fuqaro, ixtisoslik, psixologik, pedagogik bilimli va mahoratli bo'lishi muhimdir. Biror kasbning haqiqiy ustasi bo'lish uchun esa tabiiy qobiliyat, ma'lum jismoniy va ruhiy hislatlar jo bo'lishi kerak. Pedagoglik faoliyatida o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash ishini samarali bajarish, ota-onalar va o'quvchilarning izzat-hurmatiga sazovor bo'lishi uchun, kishida bu ishga layoqat, qobiliyat, mahorat, qiziqish bo'lmog'i lozim. Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahorat egasi oz mehnat sarf qilib katta natijaga erishadi. Ijodkorlik uning hamisha hamkori bo'ladi.

Albatta, bunda o'qituvchi talabchan, yaxshi mehribon, sabrli, bosiq va o'z kasbiga nisbatan e'tiqodli bo'lishi lozim. Bolani butun qalbi bilan sevadigan o'qituvchi ko'proq tabassum qiladi, kamroq qovoq soladi. Bolalarga bilim berish bilan birgalikda, ayni vaqtda ularga o'z xarakterini o'tkaza oladi, ularga odamiylik namunasi bo'lib ko'rinadi. O'qituvchining kasbga oid mahoratini shakllantirishda ham pedagogik, ham psixologik nazariyalarning o'rni kattadir, chunki ma'naviyatimizning shakllanishida o'z-o'ziga ega bo'lgan ulug' insonlar faoliyati to'g'risida, ularga qo'yilayotgan talablar haqida zamonaviy pedagogik texnologiyalar to'g'risida nazariyalar pedagogik mahoratni shakllantirishning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik tajribalarni takomillashtirishda ilmiy pedagogik ma'lumotlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chunki hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini talaba o'quvchilarga yetkaza olishi va nihoyat o'quvchilarni ham ijobiy fikrlash, tadqiqotchilik ishlarini o'rgata olishini talab qiladi. Shuning uchun o'qituvchi, avvalo, tadqiqotchilik

ishlarini olib borishi va bu sohadagi malakalarni egallashi zarur. O'qituvchi ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishi davomida tajribalarni to'playdi, tahlil qiladi, ular asosida xulosalar chiqaradi. U shu xulosalardan o'zining amaliy faoliyatida foydalanish jarayonida hozirgi zamon o'qituvchisi uchun zarur bo'lgan juda muhim bilimlarni egallaydi.

Pedagogik mahoratni takomillashtirishda shaxsiy pedagogik izlanishning ahamiyati kattadir. O'qituvchi ishidagi muvaffaqiyatni kunlik faoliyatida katta va bolalar, ayrim guruh va yakka shaxslar bilan aloqaga kirisha olish qobiliyatini ta'minlaydi. Aloqalar faoliyatda duch keladigan turli xil voqealarga pedagogik qoidalar nuqtai nazaridan emas, balki sharoitni hisobga olgan holda ijobiy hal etish talab etiladi. Keng ilmiy saviyaga ega bo'lish, intellektual qiziqish, yangilikni his qila bilish, pedagogik mahoratni oshirishga intilish o'qituvchiga xos xususiyatlardan hisoblanadi. Ta'lim sifati davlat ta'lim standartlariga muvofiq bo'lishi uchun amaliy va nazariy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Bu sohada tadqiqot ishlari amalga oshiriladi shaxsiy izlanish va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish o'qituvchining pedagogik mahoratini takomillashtirishning muhim omili hisoblanadi.

Istiqlol tufayli o'zining mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan jamiyatimiz kun sayin ravnaq topib, davlat, jamiyat va shaxs munosabatlari tobora ko'proq demokratiya tamoyillariga asoslanmoqda. Ta'lim tizimi oldidagi ustuvor vazifalar O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning asosiy g'oyalarida o'z aksini topgan. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" yuksak umumiy madaniyatga, kasb-hunar ko'nikmalariga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, mantiqiy mushohada qilish hamda ijtimoiy hayotdagi muammolarning oqilona yechimlarini topish mahoratiga ega bo'lgan, istiqlol vazifalarni odilona baholay oladigan kadrlarni shakllantirish, shuningdek, har tamonlama barkamol, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda mukammal o'zlashtirgan, mas'uliyatli fuqorolarni tarbiyalashni nazarda tutgan pedagogik g'oyani ilgari suradi. Ajdodlarimizning komil inson haqidagi axloqiy

talablar majmuasi - sharqona axloq kodeksida barkamol avlod tarbiyasi haqida o'lmas g'oyalar keltirilgan. Har bir inson shaxs sifatida turlicha namoyon bo'lar ekan, uning ijtimoiy voqelikka, mehnatga, kishilarga, jamiyatga bo'lgan munosabati ham, faollik darajasi, axloq-odob borasidagi yetukligi ham turlichadir. Shaxs qaysi jamiyatda yashasa, o'sha jamiyat qonun-qoidalariga asosida kamol topadi. Pedagogika shaxsning kamolotga yetishini murakkab va ziddiyatli jarayon deb biladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Markaziy Osiyo xalqlarining ta'lim- tarbiyaga oid pedagogik merosi Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Kaykovus, Abdulla Avloniy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi allomalarimizning asarlari, shuningdek B.M.Umarov "Pedagog shaxsi psixologiyasi", Y.Rasulova, O. Nurmatova "O'qituvchining jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni, o'qituvchining kasbiy sifatleri qobiliyatlari", Z.Qosimova "Pedagogik mahorat asoslari", S.X.Jalilova "Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik kasb faoliyatiga tayyorlashning psixologik xususiyatlari", A.Alimovning "O'qituvchi va o'quvchi hamkorligi ta'lim samaradorligining muhim omili", V.M.Karimova, Sh.Eshmatov "Ustozlik mahorati va shogirdlik sifatlarini ilmiy tahlil etish" kabi masalalar yuzasidan tadqiq etganlar.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: O'qituvchi shaxsini shakllantirishning pedagogik- psixologik asoslarini o'rganish va ilmiy tahlil etish.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- o'qituvchi shaxsini shakllantiruvchi psixologik omillarni tasniflash;
- o'qituvchi shaxsini shakllantirishning shart- sharoitlarini o'rganish;
- o'qituvchi faoliyatida uchraydigan ziddiyatli holatlarni o'rganish va tahlil etish;
- o'qituvchi shaxsini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik- psixologik jarayonining samaradorligini aniqlashdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti: Jamiyat hayotida yetakchi o'rin tutuvchi murakkab psixologik strukturasiga ega bo'lgan pedagog shaxsi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti: Bugungi kunda yuz berayotgan

globallashuv davrida zamonaviy pedagogning ish faoliyati uning malaka va ko'nikmalarini oshirishdagi muammolar, yetuk pedagog shaxsini shakllantirishdagi dolzarb masalalar. Ta'lim jarayonidagi ziddiyatlar va ularni bartaraf etishdagi hamkorlik masalalari.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi: O'qituvchi shaxsini shakllantirishning pedagogik - psixologik xususiyatlari ilmiy- amaliy va qiyosiy tahlil qilindi.

Bitiruv malakaviy ishining metodlari - muammoga oid ilmiy ishlar va adabiyotlar tahlili, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, kuzatish, so'rovnoma, hamda "Jamoadagi psixologik iqlimni baholash metodikasi" dan foydalanish va ularni tahlil qilish, umumlashtirish.

Bitiruv malaka ishining metodologik asoslari - O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi prezidenti Islom Karimovning ta'lim to'g'risida farmon va farmoyishlari, asarlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ta'limni tashkil etish, uni takomillashtirish, modernizatsiyalash va rivojlantirish"ga yo'naltirilgan qarorlari ushbu muammoga bag'ishlangan fundamental tadqiqotlar, pedagogik- psixologik manbalar tadqiqotning metodologik asosi bo'lib xizmat qildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy-amaliy ahamiyati: -
o'qituvchi shaxsini shakllantiruvchi psixologik omillarni tasniflandi. -
o'qituvchi shaxsini shakllantirishning shart- sharoitlarini o'rganildi.

o'qituvchi faoliyatida uchraydigan ziddiyatli holatlarni o'rganildi va tahlil qilindi.

-o'qituvchi shaxsini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik- psixologik jarayonlarning samaradorligi aniqlandi.

Bitiruv malaka ishining tarkibiy tuzulishi: Bitiruv malakaviy ishiga kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va tavsiyalar, ilovalar, atamalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1.1. O'qituvchi shaxsini shakllantirishuvchi psixologik omillar tavsifi.

Xalqimiz tarixiga nazar tashlar ekanmiz, uning eng aziz, eng mutabar, o'rgansa, havas qilsa arziydigan milliy qadriyatlaridan biri- ustoz- shogirdlik munosabatlari, ustozni ezozlash, hurmat qilish, shogirdlikning mas'uliyatli va sharafligi ekanligi g'oyasidir. "Ustoz" so'zi zamirida tinmay izlanish va mashaqqatli mehnat yotadi. Ustoz o'z shogirdiga bilimini, mehrini beradi, o'z yo'lini topishda nurli chiroq bo'ladi, turli tabiatli shogirdlariga sabr- chidam, mashaqqat bilan ilmu hunar beradi. Shogirdi o'zidan o'zsa, ko'ngli tog'dek ko'tariladi, ana shu mehnatga yarasha shogirdidan e'zoz hurmat ko'rsa, uni bir umr hurmat qiladi.

Prezidentimiz I.A.Karimov mamlakat ravnaqi kadrlarning hayotga qay darajada tayyor ekanligi bilan uzviy bog'liqligini o'z nutqlarida ta'kidlab, hozirgi zamon ta'lim- tarbiya jarayonlarini tubdan o'zgartirish, sobiq avtoritar pedagogikadan voz kechish va yoshlarni eng zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish va tarbiyalashga o'tish davr talabi ekanligini g'oyasini "Barkamol avlod orzusi" asarida ham ko'rsatib berdilar.

Yoshlarni milliy istiqlool g'oyasi va mafkurasi ruhida tarbiyalash mas'uliyatli ustozdan o'z faoliyati va talaba- o'quvchilarga munosabatni tahlil qilish, yangi darsga mos ish uslublarini qo'llashni talab etadi. Ma'rifatli, insonparvar muallim- ustozgina yoshlarni har tomonlama rivojlangan shaxslar qilib tarbiyalashga qodirdir. Ustoz bo'lish uchun esa, avvalo, kishida o'z ishining mazmun va mohiyatini bilishi, uni shogirdlar bilan o'rtoqlashish, ish mohiyatini yoshlarga bildirish, ichki va shaxslararo munosabatlarda intizomlilik, oqko'ngillilik, adolatlilik kabi bir qator sifatlarga ega bo'lishi lozim. Ustoz- bilimdon, o'z uslubiga, texnikasi, stiliga, taktikasiga ega bo'lgan shaxs sifatida, ushbu xislatlarni shogirdlariga o'tkaza olish, "ta'sirlantirish" mahoratiga ega bo'lishi lozim.

O'zbekchilikdagi an'analarga ko'ra, ota- ona bolasini usta oldiga olib kelib, o'z niyat- maqsadlarini bildirib, "Eti sizniki, suyagi bizniki" deya, o'z farzandini ustozga ishonib tashlab ketadi. Rozilik bergan ustoz ma'lum davr

mobaynida shu muhitda bo'lish, yengil- yelpi ishlarni bajarish, egallamoqchi bo'lgan hunarga aloqasi bo'lmagan har xil yumushlar bilan band qiladi. Buning ahamiyati shundaki, shogird birinchidan, ustozga ko'nikadiki, uning sharoitini to'la o'rganadi, boshqa shogirdlariga qarab kelajakda nimaga erisha olishini tasavvur qiladi. Ustoz shogirdining uquvini, ishga munosabatini, qo'l-oyog'i chaqqonligini aniqlaydi. Shundan keyingina shogirdiga bevosita hunarga aloqador ishlarni bajarish va ishtirok etish huquqi beriladi. Sinovga dosh berolmagan shogirdlar ketib qolishi ham mumkin bo'lgan. Chunki bu orada shogirdning qobiliyati to'g'ri kelmaganligi va vaqtni behuda sarflash maqsadga muvofiq emasligi anglanadi. Aksincha, irodasi chiniqqan, mehnatning nozik sirlarini anglab olgan shogird keyinchalik mustaqil tarzda ish olib keta oladi.

Avval ta'kidlaganimizdek har bir shaxs o'ziga xos-xususiyatlar bilan takrorlanmaydigan bir dunyo, tashqi ko'rinishi bilan o'xshash insonlarni uchratish mumkin, ammo fe'li, mijozi va shaxs sifatleri bilan bir-biriga o'xshash shaxslarni topish hayotda juda mushkul. Shaxs-qaytarilmas, u o'z sifatleri va borligi bilan noyobdir. Ana shu takrorlanmaslik va noyoblikning asosiga uning individual psixologik xususiyatlari majmui yotadi. Shu o'rinda biz yuqorida ta'rif bergan shaxs tushunchasi bilan yonma- yon ishlatilaladigan yana ikki tushunchaga izoh berish o'rinlidir. Bu borada biz «Individ» va «Individuallik» tushunchalarini ko'rib chiqamiz.«Individ»- bu «odam» degan tushunchani to'ldiradi va uning ijtimoiy-biologik mavjudod sifatida mavjudligini tasdiqlaydi. Ya'ni individ insonga aloqadorlik faktini tasdiqlovchi ilmiy kategoriyadir. «Individuallik»-bu torroq tushuncha bo'lib, aniq odamni boshqa bir aniq odamdan farqlovchi barcha o'ziga xos-xususiyatlar majmuini o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan shaxs tizimini tahlil qiladigan bo'lsak, shaxsning individualligiga uning qobiliyatlari, temperamenti, xarakteri, irodaviy sifatleri, e'motsiyalari, xulkiga xos motivatsiya va ijtimoiy ustanovkalari kiradi. Ana shu katigoriyalar individuallikni ta'minlovchi katigoriyalaridir. Demak, individual sifatlar bizning ongli hayotimizning ajralmas qismi, idrokimiz, xotiramiz va fikrlarimiz yo'naltirilgan muhim predmet ekan. Chunki aynan ular bizning turli

faoliyatlarni amalga oshirish va ishlarni bajarishdagi individual uslubimizga bevosita aloqadordir. Kimdir juda chaqqon, tez ish qiladi, lekin sifatsiz. Kimdir juda yaxshi qoyilmaqom ish qiladi, lekin juda sekin, kimdir ishga yuzaki qarab, nomiga uni bajarsa, boshqa bir odam unga butun bir vujudini va e'tiqodi bilan munosabatda bo'lib, tinimsiz izlanadi va jamiyat uchun manfaat qidiradi. Shuning uchun ham individuallikning faoliyat va muloqatdagi samarasini inobatga olib, eng muhim individual- psixologik xususiyatlarini alohida o'rganamiz.

Odamlarning o'quv, mehnat va ijodiy faoliyatidagi o'ziga xoslikni tushuntirish uchun psixologiya fani birinchi navbatda qobiliyatlar va iqtidor masalasiga murojaat qiladi. Chunki qobiliyatli odamdan avvalo jamiyat manfaatdor, qolaversa, o'sha insonning o'zi ham qilgan har bir harakatidan o'zi uchun naf ko'radi. Qobiliyatlar muammosi eng avvalo, inson aqli-zakovatining sifati, undagi malaka, ko'nikma va bilimlarning borligi masalasi bilan bog'liq. Ayniqsa, biror kasbning egasi bo'lish istagidagi har bir yoshning aqli va intellektual salohiyati uning malakali mutaxassis bo'lib yetishishini kafolatlagani uchun ham psixologiyada ko'proq qobiliyat tushunchasi aql zakovat tushunchasi bilan bog'lab o'rganiladi. Biz odatda uni insonning intellektual potentsiali yoki salohiyati deb ham ataymiz. Intellektual – lotincha so'z intellectus- tushunish, bilish va intellectum- aql so'zlari negizidan paydo bo'lgan, u aql-idrokning shunday bo'lagiki, uni o'lchab, o'zgartirib, rivojlantirib bo'ladi. Bu- intellekt va u bilan bog'liq qobiliyatlar ijtimoiy xarakterga ega ekanligidan darak beradi. Demak, qobiliyatlarga va intellektga tashqi muhit o'zining ta'sirini ko'rsatadi. (Masalan: hozirgi davr texnikasi va odamlar). Qobiliyatning tug'ma bo'lishi to'g'risida ham ko'pgina fikrlar mavjud. Ba'zan o'ta iqtidorli va qobiliyatli o'quvchi haqida gap ketsa, undagi bu sifatlar tug'ma ekanligiga ishora qilishadi. Talantli, genial olim, san'atkor yoki mutaxassis, o'qituvchi haqida gap ketsa ham xuddi shunday. Umuman qobiliyatning tug'ma yoki orttirilgan ekanligi masalasi ham olimlar diqqat markazida bo'lgan muamolardan. Psixologiyada tug'malik alomatlari bor individual sifatleri

layoqatlar deb ataladi va u ikki xil bo'ladi: Birinchisi odamdagi tug'ma xususiyatlardan: oliy nerv tizimi faoliyati xususiyatlari, qo'l-oyoqlarning biologik va fiziologik xususiyatlari, sezgi organlari- ko'z, qo'loq, burun, teri kabilarning xususiyatlari bo'lsa, ikkinchisi ijtimoiy layoqat- bu uni o'rab to'rgan muhit, muloqat uslublari, so'zlashish madaniyati, qobiliyatni rivojlantirish uchun zarur shart- sharoitlardir.

Eng talantli, mashhur shaxslarning eng buyuk ishlari, erishilgan ulkan muvaffaqiyatlarining zaminida ham qisman layoqat va asosan tinimsiz mehnat, intilish, ijodkorlik va bilimga chanqoqlik yotadi. Shuni ham unutmaslik kerakki, qobiliyatsiz odam bo'lmaydi. Har bir inson o'zidagi qobiliyat va zehnni ilk yoshlikdan bilib, o'sha o'zi yaxshi ko'rgan, "yuragi chopgan" kasb bilan shug'ullansa, va undan qoniqish olib, qobiliyatini o'stirishga imkoniyat topib, yutuqlarga erishsa, biz uni iqtidorli deymiz. Iqtidor- insonning o'z xatti- harakatlari, bilimlari, imkoniyatlari, malakalariga nisbatan subyektiv munosabatidir. Iqtidorli odam genial yoki talantli bo'lmasligi mumkin, lekin u har qanday ishda mardlik, chidamlilik, o'z-o'zini boshqara olish, tashabbuskorlik kabi fazilatlarga ega bo'lib, o'zlari shug'ullanayotgan ishni bajonidil, sitqidildan bajaradi. Ular ana shunday harakatlari bilan ba'zi o'ta iste'dodli, lekin kamharakat kishilardan ko'ra jamiyatga ko'proq foyda keltiradi. Iqtidorli insonda iste'dod sohibi bo'lish imkoniyati bor, zero iste'dod- har tamonlama rivojlangan, nihoyatda kuchli va takrorlanmas qobiliyatdir. U tinimsiz mehnat, o'z qobiliyatini takomillashtirib borish yo'lida barcha qiyinchiliklarni yengish va irodasi, butun imkoniyatlarini safarbar qilish natijasida qo'lga kiritiladi. Demak, inson yoshligidan o'zi qiziqqan narsaga qunt va did bilan yondashib malaka va ko'nikmasini oshirsa uni odatda iqtidorli deymiz. Bu katta iroda, tinimsiz mashaqqatli mehnat evaziga qo'lga kiritiladi.

Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchida qobiliyatning quyidagi turlari mavjud bo'lmog'i va tarbiyalab etishtirilmog'i lozim (bular alohida pedagogik qobiliyat deb ham aytiladi).

Akademik qobiliyat yoki bilish qobiliyati - bunday qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi fanni o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqur biladi, o'z fani sohasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatib boradi, materialni ipidan ignasigacha biladi, unga qiziqadi, oddiy tadqiqotlar olib boradi.

Didaktik qobiliyat – o'quv materialni o'quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olish, o'quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'otish qobiliyatidir. O'quvchilarning yosh va ruhiy xususiyatlarini hisobga olish, o'quvchilarning bilimi va dastur talabi o'rtasida tafovut doimo diqqat-markazida turadi va uni bartaraf etish choralari ko'rib boriladi. Ba'zi o'qituvchilarga o'quv materiali oddiy, tushunarli va qandaydir alohida izohni talab etmaydigandek tuyuladi. Bunday o'qituvchilar o'quvchilarni emas balki o'zlarini nazarda tutadilar. Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi o'zini o'quvchining o'rniga qo'ya oladi, u kattalarga aniq va tushunarli narsalarning o'quvchilarga tushunilishi qiyin va mavxum bir narsa bo'lishi mumkinligiga asoslanib ish tutadi. Qobiliyatli o'qituvchi dars materialini bayon etish jarayonida o'quvchilarning qanday o'zlashtirayotganliklaridan qator belgilar asosida payqab oladi va zarur xollarda bayon qilish usulini o'zgartiradi. Shuningdek, qobiliyatli o'qituvchi o'quvchilarning saboqni o'zlashtirib olishlari uchun zamin tayyorlaydi, choralar ko'radi. U tegishli vaziyat yuzaga kelmagunga qadar ish boshlamaydi.

Kuzatuvchanlik qobiliyati - o'quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o'qituvchi shaxsini va uning ruhiy holatlarini yaxshi tushuna bilish, bog'liq psixologik kuzatuvchanlikdir. (Bunday o'qituvchi haqida bolalar: «qaramayotganga o'xshaydi-ku, hamma narsani ko'radi!», «O'quvchining xafa bo'lganini yoki dars tayyorlamaganini ko'zidan biladi», «Bu o'qituvchini hech aldab bo'lmaydi!» va xokazo fikrlar bildiradilar).

Nutq qobiliyati – nutq yordamida, shuningdek, imo-ishora vositasida o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati. Bu o'qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir. O'qituvchining bayoni o'quvchilar fikri va diqqatini maksimal darajada faollashtirishga qaratiladi («Mana bu erga alohida e'tibor bering!»,

«Uylab ko`ring!», «Siz nima deysiz?» va h.k) Shuningdek, o`rinli qochiriq, hazil, yengilgina istexzo nutqni jonlantirib yuboradi va uni o`quvchilar tez o`zlashtiradilar. O`qituvchi nutqi ravon, beg`ubor, beg`araz bo`lishi kerak. Haddan tashqari past so`zlangan nutq lanjlik va zerikishga, haddan tashqari keskin va baqiroq nutq o`quvchining asabiylashuviga va charchashiga sabab bo`ladi.

Tashkilotchilik qobiliyati – birinchidan, o`quvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirishni, ikkinchidan, o`z ishini to`g`ri uyushtirishni nazarda tutadi. O`z ishini tashkil etish deganda ishni to`g`ri rejalashtira olish va uni nazorat qila bilish nazarda tutiladi. Tajribali o`qituvchilarda vaqtni o`ziga xos his etish- ishni vaqtga qarab to`g`ri taqsimlay olish, belgilangan muddatda ulgirish xususiyati hosil bo`ladi.

Avtoritar yoki so`zini o`tkaza olish qobiliyati – o`quvchilarga bevosita emotsional, irodaviy ta'sir ko`rsatish va shu asosda obru qozona olishdir. O`qituvchining bilimi, tadbirkorligi, xushyorligi, nutqi va imo–ishora, piching va hokazolarni o`z o`rnida foydalana olishidir. Masalan, A.S.Makarenko bu tushunchani shunday ta'riflaydi - “Men faqat “buyoqqa kel” 15-20 xilda gapira olganimdan, aft, tashqi qiyofa va ovozni 20 ko`rinishda bera olganimdan so`nggina haqiqiy masterga aylandim”².

To`g`ri muomala qila olish qobiliyati – bolalarga yaqinlasha olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan juda samarali munosabatlar o`rnata bilish, pedagogik nazokatning mavjudligini bildiradi. Pedagogik jarayonning majburiy tusda bo`lishi o`quvchi bilan o`qituvchi o`rtasida o`zaro munosabatlarda tanglikni vujudga keltiradi. Agar sinfda odatdagi ruhiy- pedagogik sharoit yaratilmas ekan, hech narsaga erishib bo`lmaydi.

Prognozlash yoki kelajakni ko`ra bilish qobiliyati – o`z harakatlarini va o`quvchi harakatining oqibatini ko`ra bilish, o`quvchining kelgusida qanday odam bo`lishini tasavvur qila olishida, tarbiyalanuvchida qanday fazilatlarni taraqqiy ettirish lozimligini oldindan aytib bera olishda ifodalanadi. Bu qobiliyat pedagogik optimizmga, tarbiyaning qudratiga bog`liqdir.

² Qosimova.Z.H. “Pedagogik mahorat asoslari”.T.: “Fan” nashriyoti.62-bet

Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati – o`qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari–hajmi, kuchi, kuchuvchanligi, idora qilina olishi, safarbarligi kabilarning taraqqiy etishi bilan izohlanadi. Diqqatni ayni bir vaqtda taqsimlash qobiliyati o`qituvchilik uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Bir vaqtning o`zida dars mazmuniga, uni qanday tushuntirishga, qaysi usul va vositalarni qo`llashga, o`quvchilarning o`zlarini qanday tutayotganliklariga, qanday o`zlashtirib borayotganliklariga e'tibor berib borish ko`pincha yosh va tajribasiz o`qituvchining qo`lidan kelmaydi. Shuning uchun goh dars mazmuniga berilib ketib, vaqt va bolalar chetda qoladi, goh dars qolib boshqa ish bilan o`ralashib qolish hollari uchrab turadi. Pedagogik qobiliyatlar faqat pedagogik faoliyat samarali bo`lishi uchun shartgina emas, balki ko`p jihatdan pedagogning muvaffaqiyatli ishlashi natijasi hisoblanadi. Shu munosabat bilan pedagogning o`zida pedagogik qobiliyatlarni aniq maqsadni ko`zlab tarkib topishi va rivojlanishi katta rol oynaydi.

Faoliyatning individual xususiyatlari yana biri temperament hisoblanadi. Temperament va layoqatlar individning dinamik o`zgaruvchan psixik faoliyati jarayonini ta'minlovchi sifatlarni o`z ichiga oladi. Odam temperamentiga aloqador sifatlarining o`ziga xosligi shundaki, ular odam bir faoliyatdan, emotsional holatdan, malakadan (kasbdan) boshqasiga o`tgan paytlarida reaksiyalarning egiluvchan va dinamikligini ta'minlaydi. Individda xos dinamik fazilatlar o`zaro ichki bog`lanishga ega bo`lib, o`ziga xos tuzilishini tashkil etadi. Psixikaning individual jihatdan o`ziga xos, tabiiy shartlashgan dinamik ko`rinishlari majmui kishining temperamenti deb ataladi. Boshqacha qilib aytganda temperament – shaxs faoliyati va xulqining dinamik va emotsional - hissiy tamonlarini xarakterlovchi individual xususiyatlar majmuidir.

Temperament xususiyatlari shaxsning ichki tuzilmasi bilan bevosita bog`liq bo`lib, ularning namoyon bo`lishi uning konkret vaziyatlariga munosabatini, ekstremal vaziyatlarda o`zini qanday tutishini belgilab beradi. Masalan: eng quvonchli yoki g`amgin damlarda , do'sti xiyonat qilganda, yaqin kishilari o`lganda va shu kabi holatlarda beixtiyor namoyon bo`ladigan

reaksiyalari uning temperamentidan kelib chiqadi. Shuning uchun ham ikkala vaziyatni ham kimdir og'ir- bosiqlik bilan, boshqasi esa o'zini yo'qotgudek darajad xis- hayajon bilan boshdan kechiradi. Temperamentning shaxs shakllanishida va ijtimoiy muhitda o'ziga xos mavqeni egallashidagi ahamiyati juda katta. O'zini bosib olgan, hayot qiyinchiliklarini sabr- bardosh bilan ko'taradigan insonning odamlar orasidagi obro'si ham baland bo'ladi. Bu uning o'z- o'ziga nisbatan hurmatini ham oshiradi, ishga, odamlarga va narsalarga munosabatini takomillashtirib borishiga imkon beradi. Temperamentning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, u hayotiy voqelar va vaziyatlarni, jamiyatda ijtimoiy guruhlarini "yaxshi- yomon", "ahamiyatli- ahamiyatsiz" mezonlari asosida ajratishga imkon beradi. Ya'ni, temperament odamning ijtimoiy obyektlarga nisbatan Temperament odamning ijtimoiy obyektlarga nisbatan "sezgirligini" tarbiyalaydi, professional mahorat va kasb malakasining oshishiga yordam beradi. Demak, bu individual xususiyatga ega bo'lgan jarayon hisoblanadi. Eramizdan ilgari II asrda yashagan Rimlik anatom va vrach Galen birinchi bo'lib temperamentlarning tasnifini yaratadi va uni 13 turga bo'ladi. Gippokrat (eramizdan oldingi V asrda) organizmning holatini asosan odam organizmidagi suyuqliklarning (qon, limfa, o't)larning miqdoriy nisbatiga bog'liq deb hisoblaydi. Kiyinchalik tibbiyot olimlari tamonidan bu klassifikatsiya to'rttaga qisqartirildi: Sangvinik- (qonning ko'pligi), Xalerik- (sariq o't ko'pligi), Felegmatik- (limfa ko'pligi), Melanxolik- (kora o't ko'pligi). Keyingi faktlarda nemis faylasufi I.Kand (XVIII asr oxiri), rus pedagogi, anatomi va vrachi P.F. Lesgaftlar ham temperamentning asosiy xususiyatlari qonda deb tushuntirganlar. E.Krechmer (nemis psixologi, 20 asrning 20 yillarida)- individning psixik tuzilishi tana kontsruktsiyasiga bog'liq deydi. 40- yillarda amerikalik olim U.S.Heldon buni garmanal sistema bilan boshqariladi deb hisoblaydi. Yuqorida takidlagan fikrlarning ayrim qismlarini e'tiborga olgan holda inson xulk-atvori dinamikasiga ta'sir e'tadigan barcha ichki sharoitlar albatta, miya orqali ta'sir qilishini tan olish muhimdir. Hozirgi zamon fani temperamentga oid individual faktrlarning sabablarini aynan miyaning, uning qobig'i va po'stlog'i osti

funksional xususiyatlarida, oliy asab faoliyati xususiyatlarida deb biladi. Temperament - xususiyatlari aslida tugʻma hisoblansada u maʼlum maʼnoda hayot davomida oʻzgarib boradi va inson bolasi bir xil temperament bilan tugʻilib shundayligicha qolaveradi. Akademik I.Pavlov temperament xususiyatlarini belgilab beruvchi uch oliy asab tizimi xossalarini ajratgan:

1.Kuch - yaʼni nerv tizimining kuchli qoʻzgʻatuvchilari taʼsiriga bardoshi, shunga koʻra odamlardagi mehnatga yaroqlilik, chidam kabi sifatlarning namoyon boʻlishi;

2.Muvozanatlashganlik - yaʼni asabdagi tormozlanish va qoʻzgʻalish jarayonlarining oʻzaro mutanosibligi, shunga koʻra, oʻzini tuta olish, bosiqlik kabi sifatlar va ularning teskari sifatlari bilan namoyon boʻladi;

3.Harakatchanlik – yaʼni asabdagi qoʻzgalish va tormozlanish jarayonlaridagi oʻzaro almashinish jarayoning tezligi va xarakatchanligi koʻrinishida aks etadi.

Shunday qilib, asab tizimi bilan bogʻliq individual sifatlarni bilish shart, chunki ular bevosita mehnat va oʻqish jarayonlarini har bir inson tomonidan, uning manfaatlariga mos tarzda tashkil etishga xizmat qiladi. Asabga bogʻliq boʻlgan tabiiy xususiyatlarimizni ham umuman oʻzgarmas deb aytolmaymiz, chunki tabiatda oʻzgarmaydigan narsaning oʻzi yoʻq. Shuning uchun ham oxirgi yillarda oʻtkazilayotgan tadqiqotlarda shaxs tizimida shunday maʼqul, “hayotiy koʻrsatkichli” xususiyatlar tizimini oʻrganilmoqda va unda temperamentga aloqador sifatlar ham nazarda tutilmoqda. Masalan, V.S.Merlin temperamentning psixologik tasnifi va ularning hayotiy vaziyatlarda namoyon boʻlishini boshqarish masalasida koʻp ishlar qilgan. Uning fikricha, insonda mavjud faollik, bosiqlik, emotsional tetiklik, hissiyotlarning tezda namoyon boʻlishi va oʻzgaruvchanligi, kayfiyatning turgʻunligi, behalovatlik, ishchanlik, yangi ishga kirishib ketish, malakalarning tezda hosil boʻlishi kabi bir qator sifatlar asosida shaxsdagi oʻsha ekstroversiya va introversiya xossalari yotadi va ularni ham oʻzgartirish va shu orqali temperamaentni boshqarish mumkin. Shulardan kelib chiqqan holda shaxsning mehnat qilish uslubini

tanlash va professional mahoratni o‘stirishda ayni shularga e’tibor berish kerak. Masalan, ba’zilar xoleriklarga o‘xshash qiziqqon, tezkor bo‘lishadi. Uning mehnat jarayonidagi ishini kuzatadigan bo‘lsak, faollik, ishini tez bajarishga layoqat ijobiy bo‘lsa, uning sifati, chala tashlab ketish xavfi, ba’zi tomonlariga yuzaki qarashi kishini oylantiradi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, hayotda sof temperament ham bo‘lmaydi va u yoki bu temperament tipi juda yaxshi ham emas. Har bir tipning o‘ziga xos nozik, kuchsiz tomonlari va shu bilan birga kuchli, ijobiy tomonlari ham bo‘ladi.

Odatda biz “xarakter” so‘zini juda ko‘p ishlatamiz, biron-bir odamga ta’rif berishda ham uning xarakteri to‘g‘ri sida gapirib, baho beramiz. Bu so‘zning ma’nosini olimlar “bosilgan tamg‘a” deb ham izohlashadi. Xarakter – shaxsdagi shunday psixologik, sub’ektiv munosabatlar majmuiki, ular uning borliqqa, odamlarga, predmetli faoliyatiga hamda o‘z-o‘ziga munosabatini ifodalaydi. Demak , “munosabat” kategoriyasi xarakterni tushuntirishda asosiy hisoblanadi. B.F. Lomovning ta’rificha, xarakter shaxs ichki dunyosining asosini tashkil etadi va uni o‘rganish katta ahamiyatga ega. Munosabatlarning xarakterdagi o‘rni xususida fikrlar ekan, V.S. Merlin ularning mazmunida ikki komponentni ajratadi:

A) Emotsional - kognitiv- bosqich muhitning turli tamonlarini shaxs qanday emotsional xis qilishi va o‘zida olamning emotsional manzarasini yaratishi;

B) Motivatsion- irodaviy-ma’lum xarakatlar va xulkn amalga oshirishga undovchi kuchlar. Demak bizning munosabatlarimiz ma’lum ma’no va mazmun kasb etgan munosabatlar bo‘lib, ularning har birida bizning hissiy kechinmalarimiz aks etadi va xarakterimiz namoyon bo‘ladi. Mashhur rus olimi, psixologiyaning metodologiyasini yaratgan S.L. Rubinshteyn shaxsning o‘ziga xosligi va xarakterologik tizimda uchta asosiy tuzilmalarni ajratgan edi;

1. Munosabatlar va yo‘nalishlar - shaxsdagi asosiy ko‘rinishlar sifatida- bu shaxsning hayotdan nimani kutishi va nimani xohlashi.

2.Qobiliyatlar - ana shu tilak- istaklarni amalga oshirish imkoniyati sifatida- bu odamning nimalarga qodir ekanligi.

3.Xarakter - imkoniyatlardan foydalanish, ularni kengaytirishga qaratilgan turg'un, barqaror tendensiyalar, ya'ni bu odamning kim ekanligi.

Bu nuqtai nazardan qaraganda ham xarakter shaxsning "tanasi", borlig'i, konstitutsiyasidir. Xarakterning boshqa individual psixologik xususiyatlardan farqi shuki, bu xususiyatlar ancha o'zgaruvchan va dinamik, orttirilgandir. Umuman, konkret shaxs misolida olib qaraydigan bo'lsak, har bir alohida obyektlar, narsalar ,hodisalarga mos tarzda xarakterning namoyon bo'lishining guvohi bo'lishimiz mumkin. Masalan, o'z kasbdoshlari orasida doimo o'z nuqtai nazariga ega bo'lgan, gapga chechan, kerak bo'lsa, qaysar, dadil bo'lishi, ko'chada jamoatchilik joylarida beg'am, loqayd, birov bilan ishi yo'q, kishiday tuyulishi, o'ziga nisbatan esa o'ta talabchan, lekin egoist, o'z-o'ziga bahosi yo'qori bo'lishi mumkin. Demak, xarakterning psixologik tizimini tahlil qiladigan bo'lsak, uning borliqdagi obyektlar va predmatli faoliyatga nisbatan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun ham psixologiyada xarakterning quyidagi tizimi e'tirof etiladi:

1.Mehnat faoliyatida namoyon bo'ladigan xarakterologik xususiyatlar. (mehnatsevarlik, mehnatkashlik, tashabbuskorlik, ishga layoqat, ishga qobillik mas'uliyat, dangasalik , qo'nimsizlik va boshqalar).

2.Insonlarga nisbatan bo'lgan munosabatlarda namoyon bo'ladigan xarakterologik sifatlar. (odoblilik, mehribonlik, takt, jonsaraklik, dilgirlik, muloqatga kirishuvchanlik, altruizm g'amxo'rlik, rahm-shafqat va boshqalar).

3.O'z-o'ziga munosabatga aloqador xarakterologik sifatlar. (kamtarlik, kamsuqumlik, mag'rurlik, o'z-o'zini tanqid qilish, ibo, sharmu-hayo, manmansirash va boshqalar.)

4.Narsalar va hodisalarga munosabatlarda namoyon bo'ladigan xususiyatlar. (tartiblilik, oqillik, saronjom-sarishtalik, qo'li ochiqlik, ziqnalik, tejamkorlik, pokizalik va boshqalar.)

Xarakter - tarixiy kategoriya hamdir. Negaki har bir ijtimoiy- iqtisodiy

davr o'z kishilarni o'z avlodini tarbiyalaydi va bu tafovut odamlardagi xarakterologik xususiyatlarda o'z aksini topadi. Xarakter xususiyatlarining nimalarda namoyon bo'lishi, ularning belgilari masalasi ham amaliy jihatdan muhimdir. Avvalo xarakter insonning xatti- harakatlarida va amallarida namoyon bo'ladi- odamning ongli va maqsadga qaratilgan harakatlari uning kim ekanligidan darak beradi. Masalan: Nutqning xususiyatlari (baland yoki sekin gapirish, bosiq yoki emotsional boy gapirishlar) ham xarakterning yo'nalishini belgilaydi.

Tashqi qiyofa- yuzining ochiq yoki tund ekanligi, ko'zlarining samimiy yoki johilligi, qadam bosishlari- tez yoki bosiq, mayda qadam yoki salobatli, turishi- viqorli yoki kamtarona, bularning hammasi xarakterni tashqaridan kuzatib o'rganish belgilaridir. Xarakter xususiyatlari o'zgaruvchan bo'lishiga karamay, xar bir alohida shaxs va yaxlit millat o'ziga xosligini ifodalovchi shunday barqaror sifatlar bo'ladiki, ular yillar, hattoki, asrlarga ham dosh beradi. Masalan: o'zbeklarning samimiyligi, mehmondo'stligi, ibo, sharmi-hayo, kamtarlik, mehnatsevarlik va boshqa sifatlar avloddan- avlodga o'tib kelmoqda. Bu sifatlar Xalq ma'naviyatiga aylanib qolgan va o'zbekning o'zligini anglatadi.

Ma'lumki, shaxs barcha ijtimoiy munosabatlarning majmuasidir. Shu sababli uning hayotda mavjud ko'p qirraligidan foydalana bilish lozim. Hamma davrlarda pedagog shaxsiyati qanchalik erkin va o'ziga xos bo'ladigan o'quvchilarga ta'siri qanchalik kuchli bo'lsa, mehnatning samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi deb hisoblangan. Pedagog o'z ishi davomida faqat alohida har bir o'quvchi shaxsi bilan ish olib bormasdan, balki o'z tajribasida o'quvchilarni birlashtirgan turli xildagi guruhlar, jamoa, oila bilan ish olib borishga to'g'ri keladi. Shu munosabat bilan pedagog guruhlar va jamoalarning asosiy ijtimoiy- psixologik qonuniyatlarini bilishi shart. Zero o'qituvchining haqiqiy munosabatlari tizimiga kiradigan shaxsi hamisha uning faoliyatida muhim o'rin tutishi kerak.

1.2. O‘qituvchi shaxsini rivojlantiruvchi pedagogik bilimlar tizimi.

Aqliy mehnat bilan shug‘ullanuvchi kishilar orasida o‘qituvchilar alohida o‘rin egallaydi. Ilg‘or insoniyat o‘qituvchilik kasbining yuksak insonparvarlik maqsadini ko‘rsatishini allaqachonlar tushunib yetgan. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni 1997-yil 29-avgustdagi qabul qilingan bo‘lib, u 5 bo‘lim va 34-moddadan iborat. Qonunning 5-moddasi pedagoglik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqi haqida. “Tegishli kasb –kor malakasiga ega bo‘lgan, o‘zida axloqiy yuksak sifatlarni mujassamlashtirgan kishilar pedagoglik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga egadirlar”.³

Mustaqil O‘zbekiston davlatining ta’limi sohalarida ishlaydigan o‘qituvchi vatanparvarlik burchini to‘g‘ri anglagan holda ixtisosga doir bilimlarini chuqur bilishlari lozimdir. Shuningdek nazariy, milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni, dunyoviy, diniy ilmlardan ham xabardor, ma’naviy barkamol bo‘lmog‘i lozim. Xalqimizning kelajagi mustaqil O‘zbekistonning istiqboli ko‘p jihatdan o‘qituvchiga uning saviyasiga, yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash ishiga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq. Ilmiy pedagogik izlanishlarning baholash mezonlari to‘g‘risida fikr yuritilganda , avvalo, tadqiqotning zamonaviyligi, dolzarbligi, undan ko‘zlangan maqsad hamda natijalar nazarda tutiladi. O‘qituvchi shaxsining kasb sohasidagi xususiyatlari bu- bolalarni sevish, ular bilan ishlashga qiziqish, o‘z kasbiga muhabbatli bo‘lish, pedagogik nazokat, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik qobiliyati, haqqoniylik, dilkashlik, talabchanlik, qat’iylilik va maqsadga intilish, vazminlik, o‘zini tuta bilish, kasbiy layoqatlik va boshqalar. Samarali pedagogik ta’sir ko‘rsatishni to‘g‘ri tashkil etish, bolalar bilan muomala qilishda samimiy munosabatda bo‘lishga yordam beradi. Amaliy pedagogik faoliyatda ilmiy g‘oyalar va pedagogik tarbiyani qo‘llash, o‘qituvchi mehnatiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Lekin bu mehnat natijalari darhol ko‘rinmaydi. Uning mahsulini ko‘rish uchun yillab mehnat qilish kerak. O‘qituvchi faoliyatini o‘rganish shuni

³ “Ta’lim to‘g‘risidagi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. T.: 1997-yil, avgust

ko'rsatadiki, bu faoliyat o'zining sifat ko'rsatkichlari boyicha ham turlicha bo'ladi. Haqiqiy fidoiy o'qituvchilar o'z faoliyatida eng yaxshi natijalarga erishadilar. Tajribali novator o'qituvchilar bolalarga samarali ta'lim-tarbiya berish bilan bir qatorda pedagogika fanidan yangi yo'l ham ochmoqdalar.

Pedagogik mehnatni amalga oshirish jarayonida quyidagi xususiyatlarni o'z faoliyatida amalga oshirishlari zarur:

- o'qituvchining siyosiy qarashlari va e'tiqodining aniqligi, hamda barqarorligi, o'quvchilar oldida chinakkam obro -e'tibor qozonishi;

- mamlakatning butun ijtimoiy hayotida faol ishtirok etish va egallangan tajribalarni , bu faoliyatga o'z o'quvchilarini jalb qilish, ularni ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishini ta'minlash;

- har bir o'quvchi shaxsiga katta qiziqish bilan qarash va jamooa ishlarini tashkil etish;

- o'qituvchilar o'z ishlariga bugungi kun talabi bilan emas, balki kelajakni o'ylab ish yuritish;

- bolalarga bo'lgan munosabatlari, ularning taqdiri haqida g'amxo'rlik qilish, o'z tarbiyalanuvchilarining kelajagi bilan qiziqish;

- ilg'or pedagogik tajribani hamda, ta'lim va tarbiya nazariyasini chuqur o'rganish, hamma yangiliklarni tushinib olish, ularni o'z tajribalari bilan solishtirib ko'rish, ba'zilarini o'z ishiga tadbiq qilish.

O'qituvchining ijodkorligi o'quvchining ijodkorligini uyg'otadi. Ular o'z o'quvchilarini vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash bilan birga, ularning qalbida oliyjanob fazilatlarini qaror toptiradilar. Shunday ekan, o'qituvchilarning pedagogik mahoratida shaxsiy faoliyat tizimini ishlab chiqish muhimdir. Hayot kashfiyotlar olami. Tajriba, uslub, fikrlar rang-barang. U samarali mehnat natijasida isbot va dalillar orqali o'quvchilar qalbiga ko'chadi. Ularning tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar muallimning faxri, kelajagidir. Shu bois, ularning niyati o'quvchilarni mustaqil yurt quruvchilari, ilmiy ma'rifat fidoiylari safida ko'rishdir. O'qituvchining eng birinchi maqsadi o'quvchisini savodli qilishdan iboratdir. Lekin uni amalga oshirish

juda ham машaqqatdir, bir o'qituvchining o'z faoliyat tizimni ishlab chiqish va unga qat'iy amal qilish uning ta'lim sohasidagi muvaffaqiyatlarining muhim omillaridan biridir.

Kasb mukammal bilim mahorat talab etadigan faoliyat turi. Unga esa maxsus va oliy ma'lumot hamda amaliy tajribalar orqali erishiladi. Pedagoglik esa tarbiyashunoslik insonning komilligini ta'minlovchi ustoz-muallimlarning professional kasbiy faoliyatidir. Pedagoglik kasbi umumiy ta'lim-tarbiyaning qonun-qoidalari, tamoyillari, metod, usullari va qo'llaniladigan ish shakllarini, yangi texnologiyaning afzalliklari va kamchiliklarini o'zida mujassamlashtiradi va ijodiy rivojlantiradi. Insoniyat tarixida pedagoglik kasbining mohiyati va mazmuni, uning inson hayoti uchun zarurligi ko'proq "Ustoz", "Muallim" yoki "O'qituvchi" kabi iboralar bilan ifodalanadi. O'qituvchi o'ziga bo'lgan bu hurmat bilan birga unga yosh avlodni tarbiyalash kabi faxrli, ayni zamonda juda murakkab va mas'uliyatli vazifa ishonib topshirilganligini yaxshi biladi. Bunday ishonchni oqlash o'qituvchilardan katta mas'uliyat talab etadi. Ilmiy – texnika va fan taraqqiyoti katta sur'atlar bilan rivojlanayotgan hozirgi sharoitda hayot bizning oldimizga yangidan-yangi muhim vazifalarni qo'ymoqda.

Pedagogik mahorat yuksak darajada pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini pedagogik texnikani egallashni, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi, fuqorolik va kasbiy mavqeini ifodalaydi. "Pedagogik mahorat" bir kategoriya sifatida o'zining ilmiy asoslariga ega. Pedagogik mahoratlari asoslari fanining paydo bo'lishi buyuk pedagog A.S.Makarenko (1889-1939) nomi bilan bog'liq. U bolalar kalonnasidagi faoliyatida ya'ni faqat tarbiyani emas, ma'naviy qiyofasini yuqotgan bolalar bilan ishlab, ularning benihoya hurmati va ishonchiga sazovor bo'ldi. Shaxsiy tarbiyaviy usuli bilan butun olamga mashhur bo'lganligining o'zi ham A.S.Makarenkoning yuksak pedagogik mahorat cho'qqisiga erishganligining yaqqol dalilidir. A.S.Makarenko bo'lajak pedagog talabalik davridayoq pedagogik mahorat sirlarini o'rganishi zarurligini ta'kidlab, shunday deydi: "Tarbiyachi tashkil

etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahildor bo'lishni bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi lozimki, uning har bir harakati tarbiyalasin"⁴

1987- 1997 yillardagi ilmiy yondashuvlar bu favqulotda hodisaga nisbatan quyidagicha xulosa qilishga imkon berdi. Hozirgi zamon pedagogika va psixologiya sohasidagi maktablarda "Pedagogik mahorat" tushunchasiga turlicha izohlariga duch kelamiz. "Pedagogik mahorat - tarbiya va ta'lim jarayonida yuqori darajaga erishish va uni doimo takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlovchi san'at bo'lib, o'quvchilarga mehr qo'ygan va o'z kasbini sevgan har bir pedagogning qiladigan ishi. O'z ishining mohir ustasi bo'lgan pedagog-bu yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, fanning yoki san'atning tegishli sohalarini yaxshi tashkil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyotini mukammal egallagan mutaxassisdir". Pedagogik mahorat kasbiy faoliyatdagi individuallikning yorqin ko'rinishi sifatida tushuniladi. Pedagogik mahorat kategoriyasi kasbiy faoliyat nuqtai nazaridan kishining individualligini xarakterlaydi.

O'quv tarbiya ishlari jarayonida eng yuksak natijalarga erishib, faoliyatning yuksak darajada baholanishi va hamma tomondan tan olinishini istamaydigan pedagog topilmasa kerak. Bunga erishishni ana shu xil orzuning ushalishini pedagogik mahorat deymiz. Pedagogik mahoratning o'ziga xosligi quyidagi kategoriyalarda jamlanadi:

- pedagogik mahorat;
- pedagogik ijod;
- novatorlik;
- kasbiy bilimdonlik;
- faoliyat uslubi;
- innovatsion faoliyat;
- pedagogik texnologiya;

Pedagogik mahorat- bu o'quv jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon

⁴ Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. "Ta'limda innovatsion taxnologiyalar".T.:2008.-181 B.146-bet

yoʻnaltirish, oʻquvchilarda dunyoqarash qobiliyatni shakllantirish, ularda jamiyat uchun zarur boʻlgan faoliyatga moyillik uygʻotishdir. Pedagogik mahorat yaxlit tizim sifatida quyidagi tarkibiy qismlardan iborat boʻladi:

- pedagog shaxsini insonparvarlik yoʻnalishiga ega boʻlishi, uning qiziqishlari, qadriyat yoʻnalishlari va ideallarining oliy maqsad- barkamol avlod tarbiyalab yetishtirishga yoʻnaltirilganligi;

- mutaxassislik fanlari, oʻqitish metodikasi, pedagogika – psixologiyadan mukammal bilimga ega boʻlish;

- pedagogik qobiliyatga ega boʻlish (muloqatga moyillik, ishchanlik, kelajakni tasavvur qila olish, kasbiy mustaqillik, sensor axbarotlarni tezlik bilan anglash);

- pedagogik texnikani egallash, yaʼni oʻzini- oʻzi boshqara olish, oʻzaro taʼsir etish va hamkorlikda ishlashni uddalash.

Pedagogik mahorat oʻz ichiga bolalar haqidagi, ularning psixologiyasi toʻgʻrisidagi, maktab haqidagi, taʼlim- tarbiya jarayonlarini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Dars mashgʻulotlariga tayyorlash va oʻtkazishda oʻquvchilar tarbiyasiga atroflicha yondashish- yosh avlodni har taraflama yuksaltirish talab etilmoqda. Oʻqituvchi ota-onadan ulugʻ va yorugʻlik manbai ekanligini professor R. Usmonov oʻzining “Saodatnoma” asarida quyidagilarni yozadi: “Oʻqituvchi yorugʻlik manbaiga, oʻquvchi esa yoritiladigan maydonda oʻxshaydi. Manba maydonga qanchalik yaqinlashsa, maydon yorugʻlik nurlaridan koʻproq bahramand boʻladi”⁵. Darhaqiqat, oʻqituvchi aql binosini, yaʼni ilm bilan toʻldiruvchidir.

Oʻqituvchi shaxsining qimmatiga baho berish tizimida uning mahorati yoʻnalishi muhim oʻrin egallaydiki, uning negizida pedagogik faoliyatga boʻlgan ehtiyoj yotadi. Oʻqituvchi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni nechogʻlik vijdon, aql va pedagogik mahorat bilan bajarilishi jamiyat kelajagini

⁵ Rahimjon Usmonov " Saodatnoma" (tanlangan asarlar) .T.: “Oʻqituvchi”.87-bet

ta'minlovchi muhim omildir.

Shaxs kasbiy shakllanishining ikki tomoni mavjud: a) shaxsning o'z individual xususiyatlariga bog'liq bo'lgan ichki tomoni; b) jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va tarixiy sharoitlari hamda maqsadlari bilan aniqlangan tashqi tomoni. Shunday ekan, yuksak saviyali, zo'r mahoratli tarbiyachilargina xalq orzusidagi barkamol insonni tarbiyalaydi. Zero, ilm insonni yuksaklik sari olib boradi. A. Avloniy aytganlaridek: "Ilm insonlarning madori, hayoti, porloq kelajagi, rahbari, najotiga aylangan". Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas fazilatdir. Shuning uchun avvalambor ilmi, tarbiyali bo'lmoq har bir yosh insonning burchi hisoblanadi.

Respublikamizning taraqqiyotiga erishishni ko'p jihatdan kadrlar masalasining qanday hal qilinganligi belgilab beradi. Shu bois, hozir kasb-hunar kollejlarida yuksak ma'rifatli, malakali kichik mutaxassislar tayyorlash uchun o'z kasbini sevuvchi, pedagogik mahoratga, bilimga, kasbiy madaniyat va ma'naviyatga ega maxsus fan o'qituvchilariga bo'lgan ehtiyoj har qachongidan ham ko'proq sezilmoqda. Katta ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida inson omilining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Hayotning barcha jabhalarida, xususan, ijtimoiy, madaniy-maishiy yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatayotgan, boshqarish tarmoqlarida xizmat qilayotgan, o'rta maxsus ta'lim muassasalarida ta'lim berayotgan o'qituvchilarning va boshqa sohalarda faoliyat yuritayotgan kadrlarning ma'naviyatli va madaniyatli bo'lishini zamonning o'zi taqozo etmoqda. Lekin kishi o'z-o'zidan ma'naviyatli va madaniyatli bo'lib qolmaydi. Madaniyatli bo'lish uchun inson doimo o'zini-o'zi tarbiyalab borishi zarur. Buning uchun har bir inson o'zini-o'zi tarbiyalash xarakterini shakllantirishi, madaniyatni kamol toptirishi, insoniy qadriyatlarni ongli ravishda anglashi va ularga amal qilishi zarur. Negaki, kishi o'z-o'zini tarbiyalashga intilmas ekan, boshqalar unga faqat tarbiyaviy ta'sir ko'rsatsa-da, uni tarbiyalay olmaydi. Madaniyatning asosi esa ta'lim-tarbiyadir.

Bilamizki, insoniy fazilatlarsiz kasb madaniyatini tasavvur ham qilib

bo'lmaydi. Bu holat esa turli soha mutaxassislari, xizmat ko'rsatish korxonalari xodimlari, ayniqsa, o'qituvchi, ustoz- murabbiy hamda rahbarlarning kasbiy madaniyati yuksak bo'lishi talab etdi. Chunki ularning ma'naviyatsizligi va madaniyatsizligi nafaqat o'ziga, balki millatga ham zarar keltirishi tabiiydir. Madaniyatsizlik bu ma'naviyatsizlikdir. Ma'naviyat bo'lmagan joyda madaniyat nima qilsin? Kishining ma'naviyati uning kasbiy faoliyatida, xulq-atvorida ko'rinadi. Demak, ma'naviyat kasb madaniyatining asosiy omilidir.

Albatta, kasb madaniyati ega bo'lgan kishi hayotning barcha qiyinchiliklarini yengib o'tadi va maqsadiga ertami-kechmi yetadi. Shu ma'noda o'qituvchining kasbiy faoliyati, ijodkorligi, mahorati, munosabat-muloqoti, amaliy va nazariy ishlari, ishlab chiqarish yoki mehnat jarayonidagi yutuqlarining asosi uni kasb madaniyatini qanchalik o'zlashtirib olganiga bog'liqdir. O'qituvchi kasb madaniyatining zahirida mehnat yotadi. Mehnat ko'nikmasini egallamay, mehnat qilishga o'rganmay kasb madaniyatini shakllantirib bo'lmaydi. Maxsus fan o'qituvchilarining kasb madaniyatini shakllanishiga o'ziga xos subyektiv va obyektiv omillar ta'sir qiladi. Subyektiv omil kishi shaxsiyatining xususiyatlari, hayotiy ehtiyojlari bilan belgilanadi. Obyektiv omil esa, shaxs yashayotgan ijtimoiy muhitga, shuningdek, u faoliyat ko'rsatayotgan jamoadagi moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarga bog'liq bo'ladi. O'qituvchining kasbiy madaniyati uning kasbiy faoliyat doirasidagi, uning shaxsiy sifat tavsifining mohiyati-tizimli ta'limdan iborat. O'qituvchining pedagogik madaniyati tashkil topgan ko'rsatkichlar darajasi va asosiy tizimli komponentlariga quyidagilar kiradi.

A) intellektual rivojlanish darajasi (eng avvalo, pedagogik tafakkurning rivojlanishi);

B) pedagogik faoliyatning har tomonlama tashkil topishi va darajasi;

V) asosiy kasbiy pedagogik etika, ma'naviy xarakter va odob madaniyati ;

G) o'zaro munosabat madaniyati;

S) so'zlashuv madaniyati;

E) tashqi ko'rinish madaniyati va boshqalar.

Pedagogik fikrlash madaniyatiga pedagogik tahlil va sentez qobiliyatining rivojlanishi, fikrlashdagi tanqidiy kurash, mustaqillilik, kenglik, epchillik, faollik, tezlik, kuzatuvchanlikni rivojlanishi, pedagogik xotira va boshqalar kiradi. Pedagogik fikrlash madaniyati bo'lgan o'qituvchi tafakkur-dunyo qarashining uch bosqichini o'z ichiga oladi. Birinchisi bosqich-metodologik dunyo qarashdagi pedagogik ishonchdir. Metodologik tafakkur o'qituvchiga o'zining kasbiy faoliyatiga to'g'ri qaray olishiga, gumanistik strategiyasini ishlab chiqishga imkon yaratadi. Pedagogik tafakkurning ikkinchi bosqichi-taktikaviy dunyo, qarash bo'lib, u o'qituvchiga pedagogik fikrlash, pedagogik jarayonning moddiylashuviga imkon yaratadi. Uchinchi bosqichi-umumiy pedagogik qonuniyatlarni, real pedagogik faoliyatning unikal hodisasi bo'lib, bilimni- bilimlarga tadbiq qilishda namoyon bo'ladi. Bu tezkor fikrlashdir.

Pedagogik madaniyat tuzilmasida uning odob- axloq bo'limi muhim o'rin egallaydi. Bu pedagogik ishonch jarayonining shakllanishi, natijasi va o'qituvchining o'z qiziqishlarini ko'proq aniqlash jarayonidir. O'qituvchi . kasbiy muhitdan relokstin jarayonga, o'zining tutgan o'rnini yangilashga faol kirib borishi zarur. Pedagogik madaniyatning kasbiy faoliyatiga bog'liq tashkil etuvchisi, pedagog tomonidan o'zining pedagogik qobiliyatlarining barcha spektrini bilib olganligini xarakterlaydi, u esa pedagogik faoliyat muvaffaqiyatining nishonasi, pedagogik xatolarning oldini olish va nihoyat, pedagogik qobiliyat usullarini egallaganligidan iborat. Ma'naviy madaniyat yetuk bilimlarning nazariy darajasi holatida shakllanuvchi axloqiy bilimni o'z ichiga oladi. Bu kasbiy pedagogik etikadan iborat.

Pedagog uchun eng zaruri nutq madaniyatini egallashdir. Har bir o'qituvchining faoliyati nazariy mashg'ulotlarda ham, amaliyotlarda ham bevosita so'z va til, nutq bilan bog'liqdir. Muallimdan har bir dars so'z yoki mashg'ulotda o'rganilayotgan mavzuni shunchaki gapirib yoki so'zlab berish emas, balki mavzuni obrazli qilib badiiy tarzda talqin qilish talab etiladi, boshqacha qilib aytganda, o'qituvchining faoliyatida nutq madaniyati yetakchi

o‘rin egallaydi. Intonatsiya- nutqning zaruriy ifoda usullaridan biri hisoblanadi. To‘g‘ri tanlangan intonatsiya, musiqiylik, ohang, tong, pauza, urg‘u, temp notiq nutqning jonli ishonarli, jozibali, aniq va ravon bo‘lishini ta‘minlaydi. Xullas, o‘qituvchi aytar so‘zi bilan uning ruhiy dunyosiga ta‘sir ko‘rsatadi, bu ta‘sir kuchi esa o‘qituvchining kasb mahorati, madaniyatiga uning so‘zlarni qanday tanlay bilish va qo‘llay olish san‘atiga bog‘liq bo‘ladi. O‘qituvchining kasb mahorati, san‘atining sehr qudrati ham uning so‘zidadir. Bundan ko‘rinib turibdiki, muallim kasb madaniyatini shakllantirishda nutqning ahamiyati beqiyosdir.

Shuning uchun ham o‘qituvchida kasbiy madaniyatni shakllantirish jamiyatning, millatning ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi qudratli kuch, inson va jamiyatning rivojlanish negizi sifatida O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohatlarning bosh omili hisoblanadi. Hozirgi kunda kasb- hunar kollejlarida ta‘lim berayotgan o‘qituvchilar kasb madaniyatini shakllanishida kasbga bo‘lgan qiziqish, e‘tibordan tashqari, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, maqsad sari qat‘iy intiluvchanlik, o‘z-o‘ziga talabchanlik kabi fazilatlar muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga o‘z faoliyatiga tanqidiy munosabatda bo‘lish, vatan, jamiyat, xalq, odamlar oldidagi mas‘uliyat va burchni to‘la his qilish kabi qator subyektiv omillar ham kasb madaniyatini vujudga kelishida muhim o‘rin tutadi. Biroq maxsus fan o‘qituvchilarining kasb madaniyatini shakllanish uchun xohish-istak yoki ma‘naviy ehtiyojlarning o‘zigina yetarli emas, balki ijtimoiy sog‘lom muhit, qulay shart- sharoit kasbiy munosabatlarni belgilab beradigan vositalar ham muhimdir. Bir so‘z bilan aytganda, kasbiy madaniyat inson jamiyati madaniyatining ajralmas qismidir. Demak, maxsus fan o‘qituvchilarining kasbiy madaniyatini boshqa sohadagi kadrlar madaniyatidan ayri holda qarab bo‘lmaydi. Ularning kasbiy madaniyati yuksalishida axloqiy, xuquqiy, siyosiy, ma‘naviy, xulq-atvor, til-muomala , mehnat madaniyati kabi boshqa madaniyatlarning ta‘siri ulkandir.

Maxsus fan o‘qituvchilarining kasb madaniyatini belgilaydigan

omillardan biri- darsni tashkil eta bilishidadir. O'qituvchi o'z faoliyatini tanqidiy tahlil etishi, mahoratini oshirishi, ishiga ijodiy yondasha bilishi, o'quvchilarga shaxsiy namuna bo'lishi lozim. Bundan tashqari, undan doim o'quv tarbiya jarayonini takomillashtirib borish talab etiladi. Hozirgi vaqtda kasb –hunar kollejlari o'quvchilarini kasb –hunarga, mehnatga, muhabbat ruhida tarbiyalash muhim vazifalarda biridir. O'qituvchilarning bu boradagi muvaffaqiyatlarining eng asosiy ko'rsatkichi bu- dars sifatidir. Chunki darsning tashkil etilishini o'qituvchining kasb madaniyati, o'quvchilar bilan o'zaro munosabati, mahorati, o'z kasbiga e'tibor-qiziqishi, kasbiy layoqati belgilab beradi. Ana shu fazilatlarni o'zida mujassam eta olgan o'qituvchi o'quvchilarning bilim olishi, darsliklardan foydalanishi va ularga baho berishi mumkin bo'ladi. U o'zida bolalarga qiziqish va muhabbatni, pedagogik ishga havasni, psixologik- pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlik, pedagogik odobni, pedagogik tasavvurni, tashkilotchilik qobiliyatini, haqgo'ylikni, dilkashlikni, talabchanlik va qat'iylikni, sobitqadamlikni, vazminlikni, chidamlilikni, o'zi haqida fikrga ega bo'lishni, ma'naviy eng ,avvalo , bilish ehtiyojini va qiziqishni, intellektual faollikni, yangilikni his eta bilishni, pedagogik bilimni mustaqil ravishda oshirishga tayyorgarlikni mujassamlashtirgandir. Pedagogik faoliyat asabiy jarayonlarning kuchiga, vazmindorlik va harakatchanligiga nisbatan muayyan talablar qo'yadi. Bunga sabab shuki, o'qituvchi ulkan ish qobiliyatiga ega bo'lishi, kuchli asab buzarlari xatti-harakatiga bardosh bera olishi va o'z diqqat e'tiborini biron bir holatda yoki mavzuda qarata bilishi, hamisha faol, tetik bo'lishi, butun ish vaqti mobaynida, umuman yaxshi kayfiyatda bo'lishi, kuchlarini tezda qayta tiklay olish qobiliyatiga ega bo'lishi, tezda asabni qo'zg'atadigan vaziyatlarda o'zini tuda bilishi, sabr-chidamli, vazmin, saranjom - sarishta bo'lishi, faoliyatning o'zgaruvchan sharoitlarida vazmin va osoyishta bo'lishi, fikrlarni aniq ifodalashi, hissiyotlarni maromida izhor etishi bilan ajralib turushi, ishlarni bajarishning yuksak sur'atlarini egallab olishi, o'rta qo'yilgan vazifalarni bajarishga kirishishi, faoliyatning bir turidan ikkinchi turiga tezda o'ta bilishi,

mashg'ulotlarni o'tkazishga qo'qqisdan va zarur bo'lib qolgan taqdirda oldindan tayyorgarliksiz kirishish qobiliyatiga ega bo'lishi, yangi sharoitga tezda ko'nikishi, boshqalar bilan muomala qila bilishi kerak.

O'qituvchining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: o'quvchilarni fan asoslaridan mustahkam bilimlar bilan qurollantirish, ilmiy dunyo qarashni shakllantirish, o'quvchilarning bilimga qiziqishlari va qobiliyatini rivojlantirish, o'quvchilarni odob- axloq meyorlari asosida tarbiyalash, o'quvchilarning sihat-salomatligini saqlash to'g'risida g'amxurlik qilish, ularning individual xususiyatlarini , turmush sharoitlarini o'rganish, ota –onalar yoki ularning o'rnidagi shaxslar va jamoatchilik bilan aloqada bo'lish, pedagogik bilimlarni tadbiq qilish, pedagogik mahoratni muntazam ravishda oshira borish. O'qituvchi o'quvchiga ta'lim berish sifati uchun, ular bilimi va tarbiyasining darajasi uchun javob beradi. U mehnat qilishda, turmushda, xulq- atvorda, turmush qoidalariga rioya qilishda namuna bo'lishi kerak.

Kasb- hunar kollejlari predmetlardan, maxsus fanlardan beriladigan darslar zamonaviy bo'lishi uchun o'qituvchi hozirgi zamon pedagogikasi yutuqlari, texnikasi va texnologiyasi, didaktika va o'qitish metodikasini juda puxta o'zlashtirgan bo'lishi lozim. Ana shunday o'qituvchilar yutuqlarga erishadilar. Bu muvaffaqiyatga erishish uchun o'qituvchi avvalo, mashg'ulotlarga tayyorlanishda didaktik yo'nalishda ishlab chiqilgan darsni tashkil etish qoidalariga tayanishi lozim. Kasb- hunar kollejlari predmetlardan , maxsus fanlardan beriladigan darslar zamonaviy bo'lishi uchun o'qituvchi hozirgi zamon pedagogikasi yutuqlari, texnikasi va texnologiyasi, didaktika va o'qitish metodikasi juda puxta o'zlashtirgan bo'lishi lozim. Zero, psixologik-pedagogik tayyorgarlikning yuksak darajasi o'qituvchi mahorati malakasining hal qiluvchi belgisi hisoblanadi. Bunda u pedagogikaning metodologik asoslari va kategoriyalarini bilishni, shaxsning rivojlanishi, qonuniyatlarni bilishni, maqsadini, vazifalarini, metodlarini anglab olishni, bolalar, o'spirinlar va yoshlarning anatomik- fiziologik balog'ati asosiy qonuniyatlarini bilishni, o'quvchilarni tarbiyalashni nazariy va tabiiy- ilmiy asoslari, vositalarini

bilishni, bola psixikasi rivojlanishining qonuniyatlarini, shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini bilishni taqozo etadi.

O'qituvchi faoliyati umumpedagogik mahorat tarzida quyidagilarni egallagan bo'lishi lozim.

- o'quv mashg'ulotlari va o'quvchilarning sinfdan tashqari faoliyatiga rahbarlik qilish yuzasidan o'z ishini rejalashtira olishi;

- ta'lim va tarbiyani natijalarini, o'quvchilarning duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar va yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatolarni oldindan ko'ra bilishi;

- aniq pedagogik vazifalarni ajrata ola bilishi va aniq ifodalay olishi, uni hal etish shartlarini belgilay olishi;

- o'quv- tarbiya ishi metodlari, vositalari, tashkiliy shakllarini asosli tarzda tanlay bilishi;

- ta'lim va tarbiya metodlarini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda qo'llay bilishi;

- hukumatimizning ta'lim sohasidagi siyosati, farmonlari, qarorlarini, yangiliklarini o'rganish hamda ta'lim jarayoniga tadbqiq etish;

- ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish;

- o'quvchilarni ergashtira olishi, ularni ijtimoiy jihatdan qimmatga ega bo'lgan yangi istiqbollarga qiziqтира bilishi;

- talab qilishning eng yaxshi shaklini topa bilishi va talabni o'quvchilarning individual xususiyatlariga hamda pedagogik vaziyatga qarab o'zgartira olishi;

- boshqa o'qituvchilarning tajribasini umumlashtirish va samarali shakl, metod va usullarni o'z ishida foydalanish maqsadida tahlil qila bilishi;

- erishilgan natijalarni tahlil qilish nagizida navbatdagi pedagogik vazifalarni ilgari surishi va asoslab berishi kerak.

Demak, o'quv – tarbiya jarayonining natijalari pedagogning mahoratiga, tashkilotchilik faoliyatiga va kasb ko'nikmasiga bog'liq ekan. Darsning samaradorligi, ta'limiy rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi jarayonini oshirish

uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur.

a) pedagogning ma'naviy, axloqiy, siyosiy , ilmiy, nazariy va metodik darajasini oshirish;

b) pedagogik mehnat sifatiga, darsga tayyorlanishga mas'ul munosabatni belgilash;

d) barcha o'quv- tarbiyaviy ishlar bo'yicha samarali nazoratni tashkil etish;

e) talabalarda o'qishga mas'uliyat munosabatini tarbiyalash bo'yicha ular bilan ish olib borish, bilimlaridagi nuqsonlarni oldini olish, bilim, ko'nikma va malakalarni yuksak sifatiga ega bo'lishi uchun kurashish, bu ishga o'quvchilarni o'zini faol jalb qilish;

Albatta, bunda pedagogning bilim darajasi, sharqona fikr yurita bilishi, ish harakatining birligi kollej o'quvchilarining ijodiy fazilatlarini takomillashtirishda muhim o'rin tutadi. Tarbiyaning yetakchi maqsadi sifatida asrlar davomida shaxsning har tomonlama kamolatga erishishi g'oyasi asos bo'lib qoladi. Shaxsning har tomonlama kamolatga erishishi, bu uning ayrim qirralari yoki xislatlarining to'la qonliligini, jismoniy, axloqiy, siyosiy, estetik qarashlari yig'indisini o'z ichiga oladi . Xalqimizning "Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmagay" degan naqlini o'quvchilar ongiga, qalbiga singdirmas'uliyatli pedagogga topshirilgan. Shu tariqa pedagogik faoliyat o'qituvchi shaxsiga va mahorat bilimdonligiga nisbatan yuksak talablar qo'yadi. Bu talablar pedagoglik kasbi uchun umumiy hisoblanadi.

Xullas yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, o'qituvchi shaxsi o'quv jarayonida hamda xizmat faoliyatida o'zining maxsus sohasiga xos bo'lgan psixologik va pedagogik bilimlarni egallashi lozim. Shu bilan birgalikda pedagog shaxs va jamoa psixologiyasiga oid bilimlarni qay darajada egallanganligi, shuningdek, shaxs psixologiyasini o'rganishning metodlarini mukammal bilishlari zarur.

2.1 O'qituvchi faoliyatida uchraydigan ziddiyatli holatlar tasnifi va tahlili.

Hozirgi kunda nizolarni samarali bartaraf etish pedagogik jamoadagi psixologik muhitni emotsional yaxshilashga qaratilganligi, hamkorlikda ishlash samaradorligini oshirishda ta'minlash garovi ekanligi hech kimga sir emas. Shu boisdan pedagogik faoliyatdagi va umuman, nizolar haqida zaruriy ma'lumotlarga ega bo'lish muhim hisoblanadi.

Nizolarni buzg'unchilik oqibatlarini muvaffaqiyatli hal etish, ularni atroflicha o'rganishni talab etadi. Bunga esa jamoani yuqori darajada rivojlanganligi va iliq ijtimoiy psixologik muhitga ega bo'lishi orqali erishiladi.

Dastlabki nizo haqidagi konsepsiyalar XIX-XX asrlarda vujudga kelib, asosiy nizo va uning yechimlarini topish yo'llari bo'yicha qo'yilgan qadamlar o'tgan asrning oxirlarida salmoqli o'rin tutadi. Bugungi kunda psixologiya va ijtimoiy psixologiyada V.O.Agayev (1990), A.A. Bodalev (1983), V.I. Juravlev (1983), N.N. Obozov (1979), I.A.Kon (1997), Ya.A.Ansurov, A.I.Shipilov (2000), F.M. Borodkin (1989) va shu kabi boshqalarning tadqiqotlarida nizoning nazariy asoslar yoritildi.

Nizo (lotincha so'zdan olingan bo'lib, "to'qnashish")- maqsad, qiziqish, fikrlar, qarashlar, kishilarning o'zaro ta'sirlashuviga qarama- qarshi yo'nalishlar bo'yicha to'qnashishlardan iborat.

Jamoadagi nizoning tabiatini yoritishdan oldin uning ikkita xarakterli jihatini inobatga olishimizga to'g'ri keladi. Birinchisi –nizo va ikkinchi nizoli vaziyatdir. Ko'pgina adabiyotlar tahlili asosida nizo bilan nizoli vaziyatni ajratib turuvchi quyidagi formulani e'tiborga olish muhim deb hisoblaymiz:

Nizo + Muammo + Nizoli vaziyat + Nizo ishtirokchilari + Insident.

Bundan ko'rinyaptiki, nizo - nizoli vaziyat va u bilan bog'liq boshqa bir qator ahamiyatga ega elementlarni birlashtirishining guvohi bo'lish mumkin.

Pedagogik jamoadagi nizolarni tahlil etish zarurati tug'ilganda nizo tarkibidagi har bir elementni o'rnini aniq baholashga to'g'ri keladi. Nizolarni

vujudga kelishi va uni oldini olishda yuqorida taqdim qilingan formulaga alohida e'tibor qaratish ma'qul.

Psixologik muhit guruhiiy manfaatlarni qondirish, shaxslararo va guruhiiy nizolarni hal etishdagi amalga oshirilayotgan muloqatda vujudga keladi va namoyon bo'ladi.

Shu bois ushbu munosabatlar tafovutli xarakterga egaki, ular ba'zan do'stona, hamkorlik, musobaqa yoki raqobat, hamjihatli yoki uyaltirib qo'yish, qo'pollik yoki ongli tartib-intizom tarzida gavdalanadi. Psixologik adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim oluvchilarning o'zaro ta'sirlashuvi ko'pchilik holatlarda to'rtta asosiy ta'sir ko'rsatish usuli orqali amalga oshiriladi: e'tiqod, taqlid, ta'sir, majburlash.

Ta'kidlab o'tilgan usullardan ham ma'lumki, pedagogik jamoadagi o'qituvchi va ta'lim oluvchilar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlashuv formalarida ham ular o'z aksini topishi tabiiy. Chunki, ba'zi holatlarda, o'qituvchi tomonidan berilayotgan topshiriq va vazifalarning berilishi ta'lim oluvchilarning dunyoqarashiga mos kelish va kelmasligiga qarab nizoli holatlarni vujudga kelishi tabiiydir. Agar o'qituvchi shaxsi pedagogik jamoada yetarlicha mavqega ega bo'lgan sharoitda beriladigan vazifa va topshiriqlarning bajarilish tartibi ta'sir ko'rsatishning e'tiqod darajasini namoyon qilishi mumkin. Ishonch va nufuzning yo'qolishi, yetkazilayotgan ma'lumotlarning to'laqonligi va aniqligi, muloqat jarayonlarida shubhaning paydo bo'lishi va boshqalar ham aynan nizoli vaziyatlarni jamoada kechishiga zamin hozirlaydi.

Nizo to'g'risidagi odatiy tasavvurlar ma'lum maxsus tadqiqotlar tomonidan salbiy ahamiyatga ega ekanligi tasdiqlandi. M. Doychning ishlarida nizolar nazariy jihatdan tahlil qilinib, ular ikki turga ajratiladi: destruktiv va produktiv.

Destruktiv nizoni aniqlash kundalik tasavvurlar bilan mos keladi. Aynan bu tipdagi nizo o'zaro ta'sirlashuvda xilma-xillikni va fikrlarning toptalishiga olib keladi. Destruktiv nizo ko'pincha sababga bog'liq bo'lmagan holda shaxsning stressga tushushiga olib keladi. Shuning uchun o'ziga xos belgilar

nizo sodir bo'lishiga qiziquvchilar sonining ortishi, ularning nizoli harakatlari, bir- birlariga nisbatan salbiy ustanofkaga egaliklari va bildirilayotgan fikrlarning keskinligi belgilaydi. Boshqa bir belgisi sifatida nizoda kopponentning sifat va xislatlarini, o'zaro ta'sirlashuv vaziyatlarini noto'g'ri idrok etishi va sheriklarga ishonchni o'ta ortib ketishi nazarda tutiladi. Bu tipdagi nizolarni hal etish ancha murakkab bo'lib, yagona yo'li ancha murakkab bo'lib, yagona yo'li ancha qiyinchilik bilan erishiladigan murosa hisoblanadi.

Produktiv nizoni muammo va uning yechish yuzasidan nuqtai nazarlardagi tafovutlar va shaxslar o'rtasidagi hamjihatlikni yo'qligi keltirib chiqaradi. Bunday holda nizo muammoni atroflicha tushunishni, sheriklar motivatsiyasini, boshqa nuqtai nazarlarni himoyalashlarini taqozo etadi.

Biz nizolarni psixologik tahlili asosida quyidagi tarkibiy ko'rinishga egaligini keltirib o'tamiz.

Nizo o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy hodisadir. Nizo bu keng ma'noda va tor ma'noda tushuniladi. Keng ma'noda nizo – bu jamiyatdagi yangi va eski qarashlar o'rtasidagi kurash deb qaraladi. Tor ma'nodagi nizo – bu bir muammoni yechishdagi har bir shaxsning o'z fikrini qattiq turib himoya qilishida yuzaga keladi.

Nizo ijtimoiy psixologiyada qanday tushuniladi? Muomalaning buzulishi yoki psixologik jihatdan ichki ruhiy kelishmovchilikdir. Buni olimlar har sohada har xil tushunishadi. Masalan: G. Kovalev nizoga shunday ta'rif beradi: "Nizo insonlar o'rtasida ijtimoiy va shaxsiy masalalarni yechishda vujudga keladigan holat, lekin har qanday qarshilik bu nizo bo'lavermaydi. Odamlar bir – birining fikri bilan kelishmasligi va o'zaro bahslashishi mumkin, har biri o'z fikrida qoladi, lekin baribir kelishib ishlashga ko'p hollarda majbur bo'ladi. Qarama- qarshilik, ba'zan yoqtirmaslik, emotsiya, tushunmaslik, ko'rabilmaslik va boshqa sabablar nizoning kelib chiqishiga sabab bo'ladi"**snoska.**

O'qituvchi faoliyatida uchraydigan ziddiyatli holatlar tasnifi:

-o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi ziddiyatlar;

- o'qituvchi va o'qituvchilar o'rtasidagi ziddiyatlar;
- o'quv jarayonini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan ziddiyatlar;
- rahbar va xodim o'rtasidagi ziddiyatlar;
- rahbariyat va o'qituvchi o'rtasidagi ziddiyatlar;
- o'qituvchi va ota- onalar o'rtasida uchraydigan va shu kabi ziddiyatli holatlar mavjud.

Nizo nafaqat qarama- qarshilik , shuningdek, o'ziga xos kurashish hamdir. Har ikkala tomon ham bunday holatda o'zlarini haq deb bilishadi va o'zaro kurashadi. Nizo bu qarama- qarshi dunyoqarashlar negizida yuzaga keladi. Nizoni albatta yechish kerak, chunki busiz hayot me'yorida davom etmaydi.

Munosabat jarayonlarini har doim va barcha vaziyatlarda ham sipsilliqlik va ichki qarama- qarshiliklar yuz beradi deb tasavvur qilish yaramaydi. Ayrim vaziyatlarda bir- birini inkor etuvchi qadriyatlar, vazifalar va maqsadlarning mavjudligini aks ettiruvchi pozitsiyalar yuzaga chiqadiki, ba'zan bu o'zaro adovatni keltirib chiqaradi- shaxslararo nizolar sodir bo'ladi. Nizoning ijtimoiy mohiyati turlicha shaxslararo munosabatlar negizini tashkil etadigan qadriyatlarga bog'liq bo'ladi. Nizolarning kelib chiqishiga , shuningdek, munosabatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakat qilishlariga g'ov bo'lgan va bartaraf etilmagan ma'naviy anglashilmovchilik ham sabab bo'ladi. Munosabatdagi ma'naviy anglashilmovchilik- bu aytilgan talabning , iltimosning, buyruqning ma'nosi munosabat bog'lashgan sheriklar uchun muvofiq emasligidir. Bu hol ularning o'zaro ham jihatligi va birgalikda harakat qilishi uchun to'sqinlik tug'diradi. Misol uchun katta yoshdagilar bilan bolaning o'zaro munosabatlarida ma'naviy anglashilmovchilik shu sababli yuz beradiki, bola katta yoshdagilarning talablari to'g'riligini tushungan holda bu talablar uning tajribasiga, qarashlari va munosabatlariga yot bo'lgani uchun ham ularni qabul qilmaydi. Ma'naviy anglashilmovchilik katta yoshdagilar-o'qituvchilar va ota-onalarning bolalar va o'smirlar bilan bo'ladigan munosabatida ayniqsa muhim rol o'ynaydi. Bu ularning yoshlaridagi farq bilan, birovlarida hayotiy tajribaning mavjudligi va boshqalarida buning yo'qligi,

manfaatlardagi tafovutlar tufayli yuzga kelishi mumkin. Shuni ta'kidlash juda ham muhimki, tarbiyaviy ta'sirlarni qo'llashda katta yoshdagi kishilarning ko'pincha xatolarga yo'l qo'yayotganligi bilan izohlanadi. Agar pedagog o'quvchilar psixologiyasini bilsa va uni e'tiborga olib borsa, o'quvchining qiziqishlari va e'tiqodini, yoshiga xos xususiyatlarini, ilgari egallagan tajribasini inobatga olsa, uning istiqboli va qiyinchiliklari bilan hisoblashgan holda ish tutadigan bo'lsa, ma'naviy anglashilmovchiliklarni bartaraf etishi mumkindir. Nimani faoliyatning maqsadlarini uni amalga oshirish sabablari bilan bog'laydigan bo'lsa, uning ehtiyojlari nimada aksini topgan bo'lsa, shaxsiyatga oid mazmun, ya'ni alohida ahamiyat kasb etadi. Yolg'iz bittagina so'zning, harakatning, holatning o'zi har xil odam uchun har xil mazmun kasb etishi mumkin. O'qituvchining o'quvchiga "Tanaffusda sen yana Anvar bilan mushtlashibsan" degan tanbehi ularning har ikkalasi uchun ham bir xil mazmunni anglatadi. Munosabatga kirishuvchilarning o'zaro bir-birlarini anglab yetishlarida mohiyatlar darajasida hech qanaqa qiyinchiliklar yo'q - unisi ham, bunisi ham gap nima haqda borayotganligini tushunishadi. Lekin ularning shaxsiyatidagi oid mazmuni turlicha bo'lishi mumkin. Kollejdagi mushtlashish o'qituvchi uchun intizomning buzulishi hisoblanadi. O'quvchi uchun, ehtimol, Anvarning ancha ojiz bola sifatida uni xo'rlashlariga barham berish uchun yana bir urinib ko'rishidir.

Katta yoshdagi kishilar bola tilini faqat uning o'ziga xos mohiyatlari bilan qo'shib emas, balki ular tegishli ma'naviy va dunyoqarash qadriyatlarini ko'zda tutgan holda qabul qilgan shaxsiyatga oid mazmunlar sistemasini ham qo'shib egallashiga erishishlari uchun barcha asosga egadirlar va bu istak bolalar bilan umumiy til topish borasidagi vazifa e'tibori bilan o'rinlidir. Buningsiz kelishish va nizolardan holi bo'lish qiyin. Katta yoshdagi kishilar bu maqsadni (bolalarni katta yoshdagilarning tilini ularning shaxsiyatiga oid mazmuni sistemasiga kirib borgan holda o'zlashtirib olishlarini) e'tiborsiz qoldirmagan holda, bolaning shaxsiyatiga oid mazmunni chuqur anglab olishlari kerak. Bunda kim bilan munosabatga kirishgan bo'lsang, o'zingni o'sha

kishining o'rniga qo'ya bilish , unga o'xshash bo'lish muhim rol oynaydi. Pedagogning o'quvchi shaxsiyatiga oid mazmunlar sistemasiga kira bilmasligi va shunday qilishni istamasligi pedagogik munosabat jabhasidagi o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi nizolarga olib kelishi ehtimoldan holi emas.

Sotsial ta'sir masalasi ta'lim – tarbiyaning psixologik jihatlarini o'rganishda alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim bu- avvalo axborot jarayonidir. O'qituvchi o'quvchiga bilimlarni ma'lum qiladi (tegishli axborot beradi) va o'z navbatida teskari aloqa tarzida undan ma'lum qilingan bilimlar qanday o'zlashtirilganligi haqida tasavvur hosil qiladigan axborot oladi (javobni tinglaydi , kontrol ishni tekshiradi va hokazo). O'zaro birgalikdagi harakat mohiyatlar darajasida amalga oshiriladi. Biroq, yuqorida qayd qilib o'tilganidek, o'qituvchi tushunchalarni hosil qilgan holda faqat mohiyatlarni yetkazib qolmay, balki o'quvchilarga bu tushunchalar uning uchun ega bo'lgan mazmunni yetkazadi. Mazmunlarning o'qituvchidan o'quvchiga o'tkazilishi, "translyatsiya qilinishi" tarbiyaning eng muhim jihati hisoblanadi. Mazmunni esa mohiyatdan ajratib bo'lmaydi, albatta.

O'qituvchi tarbiya vazifalarini amalga oshirarkan, o'quvchilarga ko'rsatadigan ta'sir tarbiyalanuvchilar ko'rib, eshitib va bajarib borayotgan mazmunlarning muayyan darajada o'zgarishini taqozo qiladi. Har xil o'qituvchi ularga turlicha darajada juda ham xilma-xil tusda ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi ko'rsatadigan ta'sirning turlicha samara kasb etishi zahirida uning shaxsiyatiga oid xususiyatlar, garchi turlicha bo'lsa-da, uning o'zini davom ettirish, o'zining shaxsiyatiga oid mazmunlarni o'quvchilarga o'tkaza bilish qobiliyati , uning pedagogik munosabati xarakteri va samaradorligi aksi mujassamlashgandir.

Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste'dodga, ilmga va mashqqa degan edi ulug' olim Arastu. Ana shu g'oyalarga asoslangan holda tarbiyachilar quyidagilarga amal qilishlari lozimdir.

- tarbiyada ulg'ayotgan inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir, o'quvchi, o'smir va yosh o'g'il – qizlarning betakror va o'ziga

xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqiy va erkinligining e'tiborga tutilishi.

- milliylikning o'ziga xos an'ana vositalariga tayanish, jahon madaniyatining ilg'or tajribalariga asoslanish.

- talabalar faoliyati tarbiyaviy jarayonning asosini tashkil qilish, qiziqarli, to'laqonli o'quvchilar yosh jihatlariga mos hayot iqlimini yaratish, mehnat, hayriya, ijtimoiy foydali, ijtimoiy ko'ngilochar va shunga o'xshash tadbirlar tashkil etish lozimki, natijada o'quvchilar o'zlari xohlagan ishga qo'l ursinlar, muvaffaqiyat hissini tushunib o'zlariga ishonchlari ortsin, axloqan barqaror bo'lsin.

Muomalaning o'zaro birgalikdagi harakati va kommunikativ jihatidan tashqarida uning perseptiv jhati- munosabat ishtirokchilarining uning jarayonida amalga oshiriladigan o'zaro idrok etishi yuzaga chiqadi. O'zaro birgalikdagi harakat qila boshlaydigan odamlar o'zaro hamjihatlik darajasini baholab oladigan va muomalaga kirishgan sherigining kimligi haqida o'ziga hisob bera oladigan bo'lsagina muomala yuz berishi mumkin. Muomala ishtirokchilari o'z ongida bir- birlarining ichki dunyosini qayta tiklashga (asli holida aks ettirishga) , his- tuyg'ularini ,xulq- atvorini sabablarini, ahamiyatga molik obyektlarga nisbatan munosabatini fahmlab yetishga harakat qiladi. "Muomala chog'ida siz eng avvalo kishidagi qalbni, uning ichki dunyosini izlang"⁶, deb yozgan edi K.S.Stanislavskiy. Lekin boshqa kishining ichki dunyosini bunday tarzda qayta tiklash juda ham murakkab vazifadir. Subyektga boshqa odamlarning faqat tashqi qiyofasi , ularning fe'l atvori va xatti- harakatlari, ular qo'llanadigan kommunikativ vositalargina bevosita in'om etilgan va u ana shu ma'lumotlarga tayangan holda o'zi bilan muomalaga kirishgan odamlarning kimligini tushunib yetish , ularning qobiliyatlari, o'y-fikrlari , niyatlari va shu kabilar haqida xulosa qila olish uchun muayyan ishni bajarishga tog'ri keladi.

Agar har bir kishi o'zi munosabatga kirishgan odamlar to'g'risida

⁶Umumiy psixologiya.Pedagogika oliy bilimgothlarining talabari uchun darslik.T.: "O'qituvchi"1992

doimo to'liq, ilmiy asoslangan axbarotga ega bo'lganida bormi, ular bilan bo'ladigan o'zaro harakat taktikasini bexato va aniq ishlab chiqishi mumkin bo'lardi. Lekin subyekt kundalik hayotda, odatda bunaqa aniq axbarotga ega bo'lavermaydi, bu esa ularning qilgan ishlari va xatti- harakatlarining sabablarini boshqalarga to'nkashga majbur qiladi. Boshqa kishining hatti-harakatlari sababini his- tuyg'ularni, niyatlarni, o'y- fikrlarni va xulq – atvor motivlarini unga to'nkash yo'li bilan tushuntirish kauzal atributsiya (lotincha causa – sabab va attributio – qo'shib qo'yaman, in'om etaman degan so'zlardan olingan), ya'ni sababiy belgilar yoki sababiy izohlash deb ataladi. O'qituvchining o'quvchining hatti- harakatlarini sababiy jihatdan notog'ri izohlashi kolleжда ko'ngildagidek pedagogik munosabat o'rnatilishini qiyinlashtirib, ba'zan esa umuman yo'qqa chiqarib qoyadi.

N.Q.Krupskiy shunday deb yozgan edi: “Bolalarning hatti- harakatlariga yomon sabablarni qo'shib qo'yishidan ham kattaroq jinoyat yo'qdir ”⁷.

O'quvchilarga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatni yuzaga keltiradigan qoliplar pedagogik munosabatda o'qituvchining subyektivizmiga aylanib qoladi. Afsuski, pedagogik ishda baholashning subyektivligi ko'pincha kishining tashqi ko'rinishiga beriladigan baho bilan bog'liqdir. Pedagogning idrok etish obyekti haqida oldindan bilib oladigan axboroti yanglish fikr va subyektivizmning tarkib tipishi uchun jiddiy asos hisoblanadi. Shu munosabat bilan bir savol tug'uladi: O'quvchining yaxshi o'qimasligini unga atayin o'zlashtirmovchi sifatida, yo ozoda kiyinmagan, yo gapga quloq solmaydigan deb munosabatda bo'lish evaziga ba'zan pedagoglarning o'zlari keltirib chiqarishmaydimi? G'arazgoylik yuz beradi, subyektivizm namoyon bo'ladi, keyinchalik esa bunday vaziyatning to'g'riligini isbotlash uchun muayyan ishlar qilinadi. Idrok etish subyekti ijobiy munosabatda bo'lgan shaxslarga ijobiy, xush ko'rmaydigan shaxslarga salbiy nisbat berilishi kauzal atributsiyaga xos tipik hollardan biri hisoblanadi.

⁷ Umumiy psixologiya. Pedagogika oliy bilimgo'harining talabari uchun darslik. T.: “O'qituvchi” 1992

Masalan , tajriba sharoitlarida o'qituvchilar o'zlariga notanish o'quvchilarga o'quv topshiriqlarini bajarganliklari uchun qo'ygan baholar qayd etib boriladi. O'quvchilarning qaysi birlari ularga ancha yoqimli, qaysi birlari kamroq yoqqanday bo'lganligi oldindan aniqlab qo'yildi. "Yoqimli" o'quvchilar (tajriba o'tkazuvchi bilan kelishilganiga ko'ra) "Yoqimsizroq" lariga qaraganda hatto ko'proq xatoga yo'l qo'yganlarida ham birinchilari yuqoriroq baholangani va ularga ijobiy fazilatlar xosligi qayd qilingani, ayni chog'da "yoqimsizroqlariga" salbiy xislatlar berilgani ma'lum bo'ldi. Tajribada aniqlangan bunday bog'liqlik oreol effekti (samarasi) nomi bilan yuritiladi. Oreol effektining mohiyati shundan iboratki, kishi tomonidan qoldirilgan umumiy ijobiy taassurot subyektning idrok etish chog'ida berilmagan fazilatlarini ham ijobiy baholashga sabab bo'ladi, shu bilan birga umumiy nomaqbul taassurot tegishlicha salbiy baholarga olib keladi. Oreol effekti ko'pincha idrok obyekti idrok etilayotgan narsa haqida juda kam axbarotga ega bo'lgan paytda namoyon bo'ladi. Lekin bu effekt tanish kishini idrok etish chog'ida ham, lekin unga nisbatan yorqin namoyon bo'ladigan hissiy munosabat bildirilgan sharoitlarda yuz beradi. Shunday qilib, ayrim o'qituvchilar tomonidan sinfda pedagogika nuqtai nazaridan nomaqbul hisoblangan "erkatoylar" ning bo'lishiga yo'l qo'yilishi, o'quvchilarning baholarini ko'ra-bila turib subyektiv tarzda soxtalashtirishga va ularning shaxsiyatiga oid fazilatlarining noto'g'ri idrok etilishiga olib keladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, muomala shunchaki axborotni yetkazish bilangina cheklanib qolishi mumkin emas. U muvaffaqiyatli tarzda yuz berishi uchun muqarrar ravishda teskari aloqaning mavjud bo'lishi- subyekt tomonidan o'zaro birgalikdagi harakat natijalari haqida axbarot olib turushini taqozo etadi.

Pedagoglar faqat o'quv axboroti bilan ish ko'rmaydi. Ular ko'pchilik orasida – o'quvchilar, ota- onalar, hamkasblar va ta'lim muassasi ma'muriyati bilan ishlaydi. O'ziga xos muloqat yuklamalari yuzaga kelishi, shaxslararo munosabatlarga asab, ruhiy quvvat sarflanadi. Bunday vaziyatda pedagoglar o'z intuitsiyasiga ko'ra ish tutishi lozim. Pedagog ko'p hollarda xulqini o'zining

ota- onasi sifatidagi qarashlari bilan indentifikatsiyalaydi. Aynan shu holat ko'plab stressga moyillik vaziyatini yuzaga keltiradi. Bu vaziyat o'qituvchi uchun xavfli bo'lgan nizolarga olib kelishi mumkin. Shunday ekan, pedagogni inqirozli vaziyatni bartaraf etishiga oid ba'zi bir maslahatlar;

-o'z holatiga qaramay ortiqcha yuklama olishi, oqibatini anglab yetishi. O'z kasbiy faoliyatida ruhiy zo'riqishga olib keladigan yuklamalarni kamaytirish;

-darslarga tayyorlanish davomida o'qituvchilarning mustaqil ishlash fazalarini ko'zda tutishi, biroz dam olishi va yengil tortishiga xizmat qiladi;

-ko'proq psixologik komfort yuzaga keladigan sharoitda bo'lish, ruhiy quvvat beradigan pozitiv hissiy holat uyg'otuvchi kishilar bilan muloqat qilish;

-dunyo barkamol emasligi tamoyiliga amal qilish, u biz kutgan holatga mos kelmasligini anglab yetish. Shu sababli hamma narsa uchun javob berish va hamma vaqt kutilgan natijaga erishish mumkin emas.

O'z kompetensiyangiz doirasida o'zingizning kichkinagina dunyoingizni qurib oling; a) kundalik zaxmatni yengishga intilish; b) kasbiy odamovilik, muommolarini hamkasblar bilan muhokama qilishga odatlanish; s) yengillashish, ruhiy keskinlikni yuqotishga ko'maklashuvchi jismoniy mashqlar: nafas gimnastikasi, autotrening, xitga- yoga, meditatsiya tasavvurdagi sayohatlar bilan shug'ullanish. Zero, xalqimiz "Sog'lom tanda- sog' aql", deganda ustoz- shogird munosabatlari mehr- oqibat, bag'rikenglik va oliyjanoblik tuyg'ulariga tayansagina kutilgan samarani berishiga ishoradir.

Shuni e'tiborga olib, ruhiy quvvat olish manbalari bo'lishi va asab zo'riqishiga duch kelishni kamaytirish maqsadida xizmat qilishi mumkin bo'lgan ba'zi mulohazalarni aytib o'tmoqchimiz.

1. O'qituvchi har doim kutilmagan vaziyatlarga tushishga va undab chiqib ketishga tayyor turishi kerak. Masalan

a) darsga kirishishga va dars jarayonida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday muammoli vaziyatlardan chiqib keta olishiga ishonch bo'lishi kerak;

b) rahbar va ma'muriyat bilan muloqatga yayyor bo'lishi ham yaxshi vosita bo'la oladi;

s) ota- onalar, o'quvchilar bilan muloqatga kirisha bilish ham o'qituvchi uchun yaxshi qobiliyat hisoblanadi.;

2. Shaxs ichki va tashqi muvozanatni meyorida saqlab turishga harakat qilishi lozim. Bu bir tomondan jismoniy sog'liqlikka alohida e'tibor berib, har qanday kasallik alomatlarini namoyon bo'lishi bilanoq uning oldini olish choralarini ko'rishni talab qilsa, ikkinchi tomondan ruhiy jihatdan sog'lomlikka ham undan kam e'tibor bermaslik kerakligini bildiradi. Buning uchun shaxs o'zida "fe'li kenglik" ni shakllantirishi , ya'ni ish jarayonida vujudga keladigan har qanday kutilmagan holatni "katta fojea", deb qabul qilmasdan . Boshqalarda sodir bo'layotgan voqealar oldida bu holatlar "hech narsa" emas ekanligiga o'zini ishontira olishi va Ollohga shukrona aytishga o'zini o'rgatishi lozim. Bu ham ruhiy quvvat olish manbalaridan biri bo'lishi mumkin.

Ichki (ruhiy) quvvat olish manbalaridan biri o'qituvchining o'ziga va bilimiga ishonchidir. O'ziga ishongan , o'z mehnati nashidasi (M-n: bilimi va tarbiyalayotgan shogirdlari) insoniyat xazinasiga qo'shiladigan katta hissa ekanligiga qat'iy ishongan o'qituvchi quvvatlanish masalasini muvaffaqiyatli hal etishi mumkin. O'z iqtidoridan ruhlangan odam odatda zavq- shavqqa to'lib, ko'tarinki ruhda yashaydi va mehnat qiladi. Bunday odam biror bir ishga qo'l urar ekan, shu ishni a'lo yoki yaxshi darajada bajara olishiga ishonadi va unda kutilgan natijaga erishish imkoni yuqori bo'ladi.

Ruhiy quvvat olishning manbalaridan yana biri – o'z- o'zini samimiy sevishidir. Chunki o'zini samimiy va chuqur sevuvchi odamlar eng baxtli odamlar (faqat o'z- o'zini samimiy sevish bilan xudbinlik (egoizm) tushunchasini almashtirish kerak emas). Shaxs bajarayotgan u yoki bu faoliyatining uning ruhiyatiga ko'rsatayotgan ta'siri, shu ishning jismoniy zo'riqish berishi va unga qancha ko'p vaqt sarflashidan ko'ra ko'proq shaxsning mazkur faoliyatga qanday munosabatda bo'lishi, uni qanday idrok etishi

kabilarga bog'liqdir. Agar shaxs o'ziga yoqqan, o'zi xohlagan va o'ziga har tomonlama (ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan) foydali faoliyat bilan shug'ullanadigan bo'lsa, u shu ishni bajari charchash, horib- tolishdan ko'ra, qaytaga undan quvvat oladi. Demak, mihimi kishilarning ishga bo'lgan munosabatlarini o'zgartirish lozim. Ular o'z vazifalarini nima uchun bajarayotganligiga e'tiborni qaratishlari va imkon qadar faoliyatini ijobiy, foydali jihatlariga ko'proq urg'u berishlari lozim.

To'g'ri, o'qituvchilik oson kasb emas. Sirtidan qaraganda shunday tuyilsa-da, aslida o'qituvchilik kasbining bir qancha afzallik tomonlari bor. Shuning uchun o'qituvchilik afzallik tomonlarini alohida ta'kidlab ko'rsatmoqchimiz. Kishini ma'lum darajada jismoniy toliqishga olib keladigan o'qituvchi mehnat faoliyatining qanaqa afzallik tomonlari borligini balki ko'pchilik bilmasdir. Jismoniy toliqish odatda, inson sog'ligiga asabiy zo'riqishchalik sezilarli va salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Lekin hayotning har bir qalamida uchrashi mumkin bo'lgan ma'naviy toliqish shaxsni anchagina salbiy holatlarga tushib qolishiga olib kelishiga shubha yo'q. Ma'naviy toliqishning oldini olishda esa shaxsga, ko'pchilik "asabiy toliqish manbai" deb hisoblaydigan ish yordam berishi mumkin. Fikrimiz izohi quyidagicha: ishxonadagi hamkasblar va shogirdlar o'qituvchini har qanday vaziyatda ham qo'llab quvvatlashi, ko'nglini ko'tarib, taskin berishi mumkin. Bunday holat sog'lom psixologik iqlimli har qanday mehnat jamoasiga xos holatdir. Bu esa asabiy zo'riqqaningizda juda muhim va kerakli "davo" hisoblanadi. Umuman, o'qituvchi bo'lib ishlashni ijobiy tomonlarini ko'rsatish mumkin.

1. O'qituvchilar bilan ishlash sizga odamlar bilan ko'proq muloqatda bo'lish imkoniyatini beradi. Bu esa do'st orttirish uchun eng yaxshi imkoniyatdir. Siz o'qitgan o'quvchilar orasida sizni doimiy yo'qlab turadigan, sog'inadigan, hatto eng yaqin do'st bo'lib qoladigan shogirdlaringizning bo'lishi sizga ijobiy ta'sir etadi, ko'ningizga taskin berishi mumkin.

2. O'qituvchilik kasbi sizning dunyoqarashingizga yangi yo'nalishlarni ochishi mumkin. Hamkasblaringiz va o'quvchilaringiz bilan ma'lum bir

masalani muhokama qila turib, dunyoqarashingiz kengayib boraveradi. Shu asosda ish hayotingizdagi muammolarga boshqacha ko‘z bilan qarashga yordam beradi.

3. O‘qituvchilik sizga yumor hissini rivojlantirish, hamkasblar va shogirdlar orasidagi hazil- mutoyiba, latifalar almashinilishi, jiddiy muammolarni aytib berish davomida sizni qiynayotgan muammolar kulguga aylanib ketishi, sizdagi siqilishlarni bartaraf etuvchi eng yaxshi vositalardan biri bo‘lishi mumkin.

4. O‘qituvchilik sizga mulohazali bo‘lishga yordam beradi, hamkasblaringiz ega bo‘lgan bilim , fikr mulohazalar sizda, siz ega bo‘lganlari esa ularda bo‘lmasligi mumkin, demak siz bir- biringizni ma‘nan boyitishingiz mumkin. Qanchalik ko‘p ma‘lumotga ega bo‘lsangiz, muammolardan qutulishning shunchalik ko‘p yo‘llarini bilib olasiz.

5. Ish sizga eng ishonchli do‘stlar orttirish imkonini berishi mumkinki, oilangizga hech qanaqa aloqasi bo‘lmagan bu “odam” bilan siz bemalol , hech kimga aytib bo‘lmaydigan oilaviy va shaxsiy sirilar muammolar haqida dardlasha olishingiz mumkin. Ish tufayli sizni asab zo‘riqishiga olib leladigan o‘zingizdagi salbiy quvvatlarni chiqarib yuborishingiz mumkin.

6. Ish sizga qoniqish hissini beradi. Ba‘zan (hatto ko‘pincha) uyingizda jon kuydirib yelib- yugurganingiz odatiy hol sifatida qabul qilinadi va e‘tiborsiz qolishi mumkin. Ishda esa jon kuydirishingiz va yelib- yugurishingiz albatta, hamkasblaringiz tomonidan qadrlanadi, rag‘batlantiriladi hamda minnatdorchilik bildiriladi. Bu esa sizga ruhiy quvvat berish yo‘llaridan biri bo‘lishi mumkin.

7. O‘qituvchilik sizni o‘zingizni anglash, nazorat qilish, baholash, takomillashtirishga o‘rgatadi. Sizning har bir harakatingiz , bilim darajangiz hamkasblaringiz va shogirdlaringiz nazarida bo‘ladi. Bular o‘z- o‘zidan o‘zingizni nazorat qilishga olib keladi. Ha, shundagina mehnat azobga emas, rohatga aylanadi.

2.2. O'qituvchi shaxsini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik-psixologik jarayonlarning samaradorligi.

O'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatiga to'xtalar ekanmiz, asosiy e'tibor o'zaro munosabatning rivojlanishini o'rganishga qaratiladi. O'qitishni guruhli tashkil qilish jarayoni bayon qilinadi. A.B.Petroviskiy jahondagi shaxslararo munosabatlar faoliyatdan kelib chiqishini o'rganib, ta'lim jarayonida o'qituvchining o'quvchi bilan hamkorligini tashkil qilish faqat ularni muloqatga ehtiyojini qondirish vositasi emas, balki o'quv materialini o'zlashtirishning ham vositasi ekanligini ta'kidlagan edi. Bu muammoga boshqacha yondashgan A.A.Bodalyov o'qituvchi bilan o'quvchining munosabati ularning samarali hamkorligini vujudga keltirish uchun qulaylik yaratishni zarur deb hisoblaydi. Taniqli psixolog S.L.Rubinshteyn shunday deb yozgan “ Kundalik hayotda , odamlar bilan muomalaga kirisharkanmiz, biz ularning xulq - atvoriga qarab mo'ljal olamiz. Negaki, biz ularning tashqi ma'lumotlari mohiyatini go'yo o'qib , ya'ni mag'zini chaqib, chiqamiz va shu yo'sinda kontekstda mujassamlashadigan matnning ichki psixologik jihat mavjud bo'lgan mazmunini aniqlaymiz. Bunday o'qish naridan - beri tez yuz berdi, chunki tevarak - atrofdagilar bilan muomala jarayonida bizda muayyan darajada ularning fe'li – arvoriga nisbatan avtomatik tarzda amal qiladigan psixologik ichki ma'no hosil bo'ladi ”.⁸

Alohida bir xatti - harakat o'zicha uning zahirida ichki psixologik jihat bilan uzil - kesil bog'liq emas va bu hol shaxslararo idrokni psixologik vazifani bajarilishiga aylantiriladi. Muomalaning persektiv jhati - bu kishining kishi tomonidan idrok etilishi, tushunilishi va baholanishi demakdir. Kelishib olingan harakatlarning muvaffaqiyatliligi ular ichki dunyosining aniq ravshan “o'qib chiqilganligi” ga bog'liqdir.

Odamlarda samarali muomala o'rnatish malakalari tasodifiy ravishda tarkib topadi yoki ta'limning yordamchi mahsuli sifatida yuz beradi. Katta

⁸ Umumiy psixologiya.Pedagogika oliy bilimgohtarining talabari uchun darslik.T.: “O'qituvchi”1992.160-b

maktab yoshida o'quvchilar xulq - atvor qoidalariga bag'ishlangan ommabop adabiyotlarni (qisman oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi kursida) o'qirkan, muomala madaniyatining ba'zi jihatlari bilan tanishadi. Lekin muomala malakalarining maxsus o'rgatilishi alohida bir vazifa bo'lib , pedagog uchun uning qanchalik muhim ekanligini ta'riflash shart emas.

Muomala jarayoniga kam deganda ikki kishi jalb etilgan bo'ladi. Ularning har biri boshqasining tashqaridan seziladigan fe'l- atvor belgilarida qarab uning o'zi to'g'risida , uning ichki dunyosi to'g'risidagi tasavvurni qay tariqa hosil qila oladi? O'zaro bir- birini bilish borasida shaxslararo idrok etishning uchta muhim mexanizmining ta'sirini – identifikatsiyalash (aynan o'xshatish), refleksiya (fikrini tahlil etishga moyillik) va stereotiplashtirish (bir xil qolipga solish)ni alohida ko'rsatish mumkin.

Identifikatsiyalash - bir kishining ikkinchi kishini uning ta'rifini subyektning o'z ta'rifiga anglanilgan yoki anglanilmagan tarzda o'xshatilishi orqali tushunish usulidir. Odamlar o'zaro birgalikdagi harakat qilish vaziyatlarida boshqa kishining o'zining o'rniga qo'yib ko'rishga uringan holda uning ichki holati, niyatlari, o'y- fikrlari, mayllari va his-tuyg'ulari haqida taxmin qiladilar. Ammo subyektga munosabat boshqa kishini faqat undan o'zini chetlashtirgan holda , tashqarida turib tushunishi emas, balki o'zi bilan muomalaga kirishgan individning uni qanday qabul qilishi, uning o'zini qay tarzda idrok etishi va tushunishi ham muhim ahamiyatga egadir.

Stereotiplashtirish - xulq - atvor shakllarini tasniflash va ularni hozirgacha ma'lum va mashhur deb sanalgan, ya'ni ijtimoiy qoliplarga mos keladigan hodisalar jumlasiga kiritish yo'li bilan ularning sabablarini izohlashdan iboratdir. Bu o'rinda kishining shakllangan va andoza sifatida qo'llaniladigan timsoli qolip tarzida xizmat qiladi. Stereotiplashtirish shaxslararo idrok subyektining kitoblardan, kinofilmlardan, va boshqa manbalardan olingan ma'lumotlar , tanishlarning aytganlaridan eslab qolingan fikrlar ham

qo'shilgan tarzda shaxsiy tajribasini umumlashtirish natijasi sifatida tarkib topishi mumkin. Subyektning u bilan munosabatga kirishgan sherigi tomonidan qay tarzda idrok etilishini anglab yetish refleksiya deb ataladi. Shunday qilib, kishining kishi tomonidan idrok etilishini ko'zgudagi qo'shaloq aksga o'xshatish mumkin. Kishi boshqa birovni aks ettirarkan, o'sha kishining idrok etish ko'zgusida o'zini ham aks ettiradi.

Bog'lanish (lotincha contactus ya'ni "yaqinlashish" degan so'zdan olingan) –munosabatga kirishuvchilar o'rtasida ikki tomonlama aloqa bo'lishini taqozo etadi. Bunga erishish va uni ko'ngildagidek rivojlantirish sharti munosabatga kirishuvchi shaxslarning o'zaro bir - birlariga hurmati va ishonchidan iboratdir. Pedagog o'quv – tarbiya ishi jarayonida o'quvchilar bilan aloqa bog'larkan, ulardan o'qituvchi rolining o'zi taqozo etadigan darajada izzat- ikrom kutadi. Bu o'rinli rol tahminlari "O'quvchilar uchun qoidalar" bilan, kollej an'analari, o'qituvchilar kollektivining yakdil talablari bilan qo'llab- quvvatlanadi. Lekin munosabatda odamlarning aloqalari ikki tomonlama xarakterga ega ekanligi o'z navbatida o'qituvchidan ham o'quvchilarga nisbatan hurmat va ishonch bildirilishini talab qiladi. A.S.Makarenkoning nomi bilan bog'liq "Shaxsga nisbatan iloji boricha talabchanlik va unga nisbata iloji boricha hurmat hamda ishonch bo'lishi kerak"⁹, degan mashhur pedagogik ta'rifni juda yaxshi bilgan holda ayrim o'qituvchilar uning faqat birinchi qismini qo'llaydilar, garchi A.S.Makarenko bular ikkita har xil narsa emas, balki yolg'iz birgina narsa, deb ta'kidlagan bo'lsa ham, ta'rifning ikkinchi qismiga rioya etishni o'zlari uchun shart deb hisoblamaydilar.

O'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyitish pedagogning munosabatiga, muloqatiga bog'liq. O'quvchilarning ma'naviy boyligi o'qituvchining haqiqiy munosabatlariga bog'liqdir. Pedagog o'quv tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan aniq maqsadga qaratilgan ishlarni amalga

⁹ "Umumiy psixologiya" Pedagogika oliy bilimgothlarining talabalari uchun darslik .T.:” O'qituvchi” 1992 yil,151-b

oshirishi lozim. Ular bilan munosabatda hurmat va ishonchga ega bo'lishi diqqatga sazovordir. O'quvchiga qo'yiladigan talab, iltimos, buyruq ohangida bo'lmay, balki ularning ma'naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi zarur. Ya'ni pedagog o'quvchiga yaxshi muomila bilan munosabatda bo'lishi lozim. Shunda, pedagog munosabatining tartibi o'quvchilarga darsning boshidan boshlab, to dars tugagunga qadar bo'ladigan jarayonda amalga oshirishi o'z samarasini beradi.

Buning uchun o'qituvchilar o'quvchilarning shaxs sifatidagi xususiyatlarini maqsad va ehtiyojlarini hisobga olishlari shartdir. Yuqoridagi fikrlarga qaramay o'zlashtirishning Agar pedagog o'z tarbiyalanuvchilariga nisbatan ishonch va hurmat bilan munosabatda bo'lsa, u har qancha prinsipial va talabchan bo'lga taqdirda ham, uning eng arziyas tanbehlari ham ta'sirli bo'ladi. Ayni chog'da o'spirin o'quvchining so'zlarida, bordi-yu, o'ziga nisbatan hurmat- e'tiborni sezmasa, juda asosli va mantiqan to'g'ro pand- nasihatlarini ham ko'pincha loqayd qoldirishi turgan gap. O'qituvchilar bilan o'quvchilarning o'zaro munosabatlari havosiz bo'shliqda ro'y bermaydi. U ozmi yo ko'pmi darajada kollejdagi umumiy muhitda yuz beradi, o'quvchilar psixologiyasini tushunishning pedagogik kollektivga xos darajasiga, uning pedagogik va psixologik madaniyatiga bog'liq bo'ladi. Aloqalarning bu obyektiv bog'liqligini kollej hayotida 1-kurs o'quvchisining nojo'ya ish qilib qo'yganidan tortib to butun kollejni hayajonlantirgan favqulodda hodisaga qadar yuz beradigan istalgan bir hodisani psixologik tahlil qilish jarayonida ko'rish mumkin. O'quvchiga nisbatan talabchanlikni ularga nisbatan hurmat bilan uyg'un tarzda yo'lga qo'ya biladigan pedagog tarbiyaning maqsadlarini ro'yobga chiqarish uchun qulay pedagogik muhitni yarata oladi. Ular o'quvchilar bilan munosabat chog'ida ularga hurmat ko'rsatarkan, o'quvchilarda o'zini- o'zi hurmat qilishni shakllantiradilar. Bu esa bolalar bilan bo'ladigan bundan keyingi aloqalarning shartiga aylanadi. O'quvchilar bilan, ayniqsa, o'smirlar bilan munosabatda ularning o'zini- o'zi hurmat qilishiga tayanish ularga samarali

pedagogik ta'sir ko'rsatishda ishonchli vositadir.

O'quvchida katta yoshli kishidan farqli o'laroq, o'ziga o'zi beradigan baho, odatda barqaror bo'lmaydi. Shuning uchun ham u o'z yurish-turishlariga turli xildagi nufuzli shaxslar tomonidan berilishi ehtimol tutilgan baholarga- ota- onalarning, pedagoglarning, tengdoshlarning, o'zidan kattaroq yoshdagi bolalar va boshqalarning baholariga qarab mo'ljallanishga majburdir. Ushbu tashqi baholar o'zgarib qolgan taqdirda u boshqa odamlar bilan uni qanoatlantiradigan darajadagi munosabatni davom ettirish uchun mustahkam negiz sifatida hurmatini saqlab qolishga intiladi, boshqa odamlar uni o'zini qanday tutishni xohlayotganlaridek qiyofada ular ko'z o'ngida namoyon bo'lishga harakat qiladi. Tajribali o'qituvchilar o'quvchilar bilan muvaffaqiyatli tarzda munosabat bog'layotib, ularning o'zini o'zi hurmat qilishiga tayanish va buning yordamida mustahkam psixologik aloqa bog'lanishga erishish qanchalik muhimligini bilishadi. O'zini- o'zi hurmat qilish tuyg'usi- bu aniq, lekin mo'rt quroldir. Bordiyu katta yoshdagi kishilar ehtiyotsizlik qilib, bilmasdan yoki jo'rttaga o'quvchida o'ziga nisbatan hurmat tuyg'usini barbod qilgudek bo'lsa, bu holda ular uni nohush ta'sirlarga qarshilik ko'rsatish imkoniyatidan mahrum etgan, ibratomus narsalarga loqayd qoldirgan bo'ladilar. Bola qanchalik yomon bo'lmasin, agar unda o'ziga nisbatan hurmat saqlanib qolsa, bu hol uni boshqa odamlarni hurmat qilishga, o'zi yashayotgan jamiyatni hurmat qilishga o'rgatish mumkinligiga umid bog'lash imkonini beradi. Demak, bunday o'quvchilardan umidvor bo'lish mumkin. Psixologik bog'lanishning buzulishi esa shaxslararo nizolarga sabab bo'lishi hech gap emas.

Binobarin, o'qituvchida o'quv faoliyatini hamkorlik asosida tashkil qilish ko'nikmalari yo'qligi qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Hamkorlikdagi mahsuldor faoliyatni psixologik jihatdan o'rganishni V.Y.Lyaudis boshchiligidagi psixologlar guruhi amalga oshirdi. Uning asosiy maqsadi yangi psixik fazilatlarining shakllanishida o'qituvchi bilan o'quvchi hamkorligining rolini ifodalash edi. Ushbu nazariyaga binoan, o'quv

faoliyatining shakllanishi fan asoslarini o'zlashtirishning negizi emas, balki shaxsning ijtimoiy, madaniy qadriyatlarini egallash jarayonidir.

O'zaro hamkorlikning muhim omili va o'quvchining o'zaro munosabati xususiyatini belgilovchi asos o'qituvchi bilan o'quvchi hamkorligining shakllaridir. Hamkorlikdagi o'quv faoliyati o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarining va birgalikdagi hatti- harakatlarining alohida turidirki u o'zlashtirish obyektini, bilish faoliyatining barcha qismlarini qayta qurushini ta'minlaydi. Hamkorlikdagi o'quv faoliyatining maqsadi o'zlashtiriladigan faoliyat va birgalikdagi harakatlar, munosabat va muloqatning boshqarish mexanizmini yaratishdir. Tajribali o'qituvchi dars holatlarida juda qisqa vaqt ichida bir necha o'nlab o'quvchilarning yuzlaridagi ifodaning, mimikaning, so'zlash ohangining, ko'zlarini va gavdasini qimirlatgan holdagi imo- ishoralarini "kalitini topadi" va ularning psixik holatlari, hadiksirashlari, orzu- umidlari, qayg'u- alamlari, o'y- niyatlari to'g'risida xulosa chiqargan holda ularning ichki dunyosi to'g'risidagi tushunchaga muvofiq tarzda o'z xulq- atvorini to'g'rilab boradi, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullari va yo'llarini tanlaydi. Shunday qilib, shaxslararo idrok etish jarayonida teskari aloqa xabar beruvchi funksiyani va o'zini- o'zi boshqarish funksiyasini bajaradi.

O'quvchining jisimiy qiyofasidagi ayrim belgilar (yuzlari, qo'llari, yelkalari), o'zini tutishlari, qo'llarini gavdasini qimirlatib imo- ishora qilishlari, so'zlash ohangi axborot tashuvchilar sifatida xizmat qiladi. Muomala jarayonida bularni e'tiborga olish darkor. Tinglovchi yoki o'quvchining yuzlari teskari aloqa signallarining alohida axbarot tashuvchisi hisoblanadi. Pedagog o'quvchining yuzlaridagi ifodaga qarab uni o'ta diqqat bilan tinglashayotganliklari yoki tamomila eshitmayotganliklari (yuzlarida ifodaning yo'qligi), unga ishonch bildirayotganliklari yoki shubhalanib qarayotganliklari (yuzlaridagi shubhatomus ifoda) va hokazolar to'g'risida xulosa chiqaradi. Shunaqa hollor ham uchraydiki, pedagogning pand - nasihatlarini e'tibor bilan tinglayotgani "shundoqqina ko'rinib turgan" o'quvchi aynan o'sha paytning

o'zida o'ynab yurgan o'rtoqlariga iloji boricha tezroq qo'shilishni sabrsizlik bilan kutayotgan bo'ladi.

Hamkorlikdagi faoliyatning mahsuli o'quvchilar mustaqil holda ilgari surgan g'oyalar va o'zlashtirilayotgan faoliyatning mohiyatiga bog'liq maqsadlar va sheriklikda shaxs pozitsiyasini boshqarish istaklarining yuzaga kelishidir. Hamkorlikdagi faoliyat usuli deganda, o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi hatti- harakatlarining sistemasini tushunish kerak. Bunday hatti- harakatlar o'qituvchining o'quvchiga ko'rsatayotgan yordamidan boshlanadi. O'quvchilarning faolligi asta- sekin o'sib borib, butunlay ularning o'zi boshqaradigan amaliy va aqliy harakatiga aylanadi, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi munosabat esa sheriklik pozitsiyasini xususiyatiga ega bo'ladi.

Psixologiya fanida hamkorlikning 8 ta shakli mavjud, ular quyidagilardan iboratdir:

- a) faoliyatga kirish;
- b) mustaqil harakatlar (o'qituvchi bilan o'quvchi hamkorlikda bajaradilar);
- s) o'qituvchi harakatni boshlab beradi va unga o'quvchini jalb etadi;
- d) taqlid harakatlari (o'qituvchidan ibrat olgan o'quvchi ana shu namuna asosida harakat qiladi);
- e) maqsad harakatlari (o'qituvchi talabaga oraliq maqsadni va unga erishish usullarini tanlashda yordam beradi hamda oxirgi natijani nazorat qiladi);
- f) o'zini- o'zi boshqarish harakatlari (o'qituvchi umumiy maqsadni ko'rsatishida va oxirgi natijani baholashda ishtirok etadi);
- g) o'zini uyushtiruvchi harakatlari;

Hamkorlikdagi faoliyat usullari birgalikdagi hatti- harakatlar shaklida namoyon bo'lib, unga muloqat davrlari singari mazkur faoliyatning oddiy birliklari deb qarash mumkin. Hamkorlik faoliyatini amalga oshirish va qayta qurish jarayoni bir qator qonuniyat tarzidagi va o'ziga xos psixologik xususiyatlar tariqasidagi holatlar, mexanizmlar, aloqalar shaklida namoyon bo'lishi mumkin. Jumladan, o'qituvchi hamkorlik faoliyatini yuksak darajada boshqarish paytida o'quvchilarda fan asoslarini ochish, amaliy ko'nikmalarini

o'zlashtirish bir muncha yengil ko'chadi.

Darhaqiqat, ma'rifatli, insonparvar muallim- ustozgina yoshlarni har tomonlama rivojlangan shaxslar qilib tarbiyalashga qodirdir. Ustoz bo'lish uchun esa , avvalo, kishida o'z ishining mazmun va mohiyatini bilishi, uni shogirdlar bilan o'rtoqlashish, ish mohiyatini yoshlarga bildirish , ichki va shaxslararo munosabatlarda intizomlilik, oqko'ngillilik, adolatlilik kabi bir qator sifatlarga ega bo'lishi lozim. Ustoz- bilimdon, o'z uslubiga , texnikasi, stiliga, taktikasiga ega bo'lgan shaxs sifatida, ushbu xislatlarni shogirdlariga o'tkaza olish, "ta'sirlantirish" mahoratiga ega bo'lishi lozim.

O'qituvchi biron bir boshqa kishiga nima haqdadir xabar qilarkan, buyurar yoki iltimos, yo savol bilan murojaat qilarkan, umuman u bilan o'zaro birgalikda harakat qilarkan, har doim o'zining boshqa kishiga murojaat qilishining samaradorligi to'g'risida zarur axborot oladi- zarurat bilan muomala qilish refleksini taqozo etadi. U o'zini tog'ri tushunishlariga va tegishli natijaga erishish maqsadida ana shu axbarot asosida o'zining harakatlari va nutqiy kommunikatsiyasi vositalari sistemasini qayta ko'ra borib, o'z fe'l atvorini to'xtovsiz tog'rilab boradi. Subyektiv ravishda so'zlayotgan kishi teskari aloqaga e'tibor qilmasligi mumkin , lekin u o'zi anglamagan holda hamisha uni qo'llaydi.

Umuman ham suhbatni yoki tinglovchini idrok etish muomala vaqtida o'zaro hamjihatlikka erishishning muhim sharti bo'lib xizmat qiladi. Agar o'qituvchi o'quvchilar uni qanday tushunishlari va qabul qilishlari haqida unga teskari aloqa tarzida yuboriladigam axbarotni qabul qila olmasa, o'zaro birgalikda harakat qilish amri mahol bo'lib , pedagogik aloqa uzilib qoladi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalaridagi pedagogik jarayonning samaradorligi eng avvalo ustoz- shogird munosabatlaridagi " teskari aloqaning" mavjudligiga bog'liq bo'lib, bu tizimda shogird- talabalarning o'z ustozlari to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlarida gumanistik (insonparvarlik), alturistik (beg'arazlik), e'tiqodiy hamda irodali sifatlar ustuvor ekanligi bilishlari va amalda bunga taqlid qilishlaridan kelib chiqadi. Ustozning shogird tanlashiga asos bo'luvchi mezonlar esa shaxslararo munosabatlarda o'zaro

moslik va ijtimoiy psixologik jihatdan mutanosiblik tamoyillaridan kelib chiqadi. Shunga mos tarzda shogirdning ustoz tanlash mezonida yetakchi motiv rolini har bir ustozning yaratgan maktabi va uning salohiyati qay darajada ekanligi, mavjud maktabning mamlakat va hudud manfaatlari uchun iqtisodiy, ma'naviy, ijtimoiy jihatdan ahamiyatli ekanligini anglay olish darajasiga bog'liqligi tamoyili yotadi. Shogirdlar ustozning maktabini qadrlashlari uchun eng avvalo, ustoz qobiliyatlarini tarkibiy qismi bo'lgan ijtimoiy bilimdonlikni roli ustuvor bo'lib, didaktik, hamda akademik bilimdonliklar ushbu bilimdonlikning ta'sirida ijobiy qabul qilinadi. Ustozning shaxsiy obro'si hamda shogirdlar oldidagi nufuzi uning ilmiy yoki kasbiy maktabining mavjudligiga, bu maktabdagi ustuvor shaxslararo munosabatlarga, bu munosabatlarda ustozning alturistik, e'tiqodiy , irodaviy fazilatlari kompleksning yetakchi sifatida idrok qilinishiga olib keladi. Ustoz maktabining shogird tomonidan qadrlanishi o'sha maktabning umuminsoniy, milliy va kasbiy manfaatlarini yaqqol ifoda etishi va qadriyatlarni o'zida namoyon qila olishi bilan baholanadi.

Ustozning shogird bilan, shogirdlarning boshqalar qatorida ustozi ko'rsatmalaridan foydalana olish qobiliyatini o'rganish va ikkalasi tasavvurida hamkorlikdagi faoliyatining qay darajada ma'naviy muhitga ta'sir qilishini aniqlash maqsadida “ Jamoadagi psixologik iqlimni baholash metodikasi ” dan foydalandik. Metodikaning mohiyati shundaki, jamoadagi psixologik muhitni baholash uchun bir- biriga qarama- qarshi bo'lgan so'zlardan iborat juftliklar qatori taklif etiladi.

1.Do'stonalik	1	2	3	4	5	6	7	8	Dushmanlik
2.Kelishish	1	2	3	4	5	6	7	8	Kelisholmaslik
3.Qoniqish	1	2	3	4	5	6	7	8	Qoniqmaslik
4.Samaralilik	1	2	3	4	5	6	7	8	Samarasizlik

5.Iliqlik	1	2	3	4	5	6	7	8	Sovuqlik
6.Hamkorlik	1	2	3	4	5	6	7	8	Boshboshdoqlik
7.Qo'llab-quvvatlash	1	2	3	4	5	6	7	8	E'tiborsizlik
8.Mashg'ullik	1	2	3	4	5	6	7	8	Loqaydlik
9.Qiziquvchanlik	1	2	3	4	5	6	7	8	Zerikish
10.Muvaffaqiyat	1	2	3	4	5	6	7	8	Omadsizlik

Tekshiruvchilar oldiga qo'yilgan vazifa shundan iboratki, har bir ko'rsatkichning ustozlari ishlayotgan jamoada qanchalik namoyon bo'lishini belgilash lozim, masalan, u yoki bu sifatning kuchli namoyon bo'lishi chap tomonda "1" balda baholansa, o'ng tomonda "8" balda baholanadi. Natijada esa umumiy ko'rsatkichlarning miqdori bilan baholanadi: ko'rsatkich har bir sifat bo'yicha qanchalik past bo'lsa, psixologik iqlim shunchali yaxshi, deb e'tirof etiladi. Barcha 10 ta sifatlar bo'yicha to'plangan son 10 (eng yaxshi baho) dan 80 gacha bo'lgan miqdor oralig'ida bo'ladi. Psixologik test yordamida shu narsa aniqlandiki, avvalo, shogirdlar ustozlari jamoasida "hamkorlik", "iliqlik", "mashg'ullik", "samaralilik", "qo'llab-quvvatlash" kabi qadriyatlarni yuqori baholashdi (o'rtacha 10-25 ball). Ularga ustozlar muhitida yoqmaydigan qadriyatlarga birinchi o'rinda "Kelisholmaslik", "E'tiborsizlik" va "Loqaydlik" lar (50-75 ball) kiradi. Kollej talabalari murabbiylari – ustozlari jamoasida ma'naviy muhit ancha ijobiy va yuqori – "yaxshi" degan ta'riflar berildi.

Demak ,aynan shu ma'lumotlardan shunday xulosa qilamizki, ustozning shogirdlarning o'ziga jalb etishi uchun lozim bo'lgan jihat uning eng avvalo, o'zi ishlayotgan jamoada sog'lom, samimiy munosabatlar muhitini yarata olishi , u yerda har bir a'zoning, jumladan, shogirdlarning ilmiy ishlar yoki

konkret hunar bilan mashg'ulliklari, zerikishga o'rin bo'lmasligidir. "Ijtimoiy foydali mehnatga kirishganlik" ijtimoiy psixologik hodisa sifatida ishdagi "samaradorlik" bilan uyg'unlashgan taqdirdagina har bir shogird o'z faoliyati samarasini anglash psixologiyasi shakllanadi. Oxirgi hodisa jahon ijtimoiy psixologiyasida e'tirof etilgan muhim kategoriya bo'lib, "ustoz-shogird" munosabatlarining samarasi aslida shundan boshlanadi.

Shuning uchun ham inson o'z hayotiy faoliyatida bilim va tajribasini yanada rivojlantirishi lozim. Iste'dodli shaxsni tarbiyalashning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy omillari bo'lib, jamiyatda bunday kishilar uchun shart - sharoit yaratilishi muhim ahamiyatga ega. Prezidentimiz I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch asarida" bu haqda quyidagilarni alohida ta'kidlagan. "Agar biz mamlakatimizning qaysi shahar yoki qishlog'ida bo'lmasin, yilt etgan iste'dod uchqunini ko'rganda, hammamiz uni o'z vaqtida payqab, ardoqlab, parvona bo'lib unga yo'l ochib bersak, barcha say-harakat va intilishlarimizni ana shunday oliy janob maqsadga qaratsak, muxtasar aytganda, hasad qilib emas, havas qilib yashashni hayotimiz qoidasiga aylantirsak, hech shubhasis, biz milliy taraqqiyot bobida yanada yuksak marralarni egallashga erisha olamiz"¹⁰. Bugungi kunda o'z hayotini ana shunday mas'uliyatli sohaga bag'ishlagan ko'plab iste'dod sohiblari yurtimizda yangi hayot, yangi jamiyatning ma'naviy asoslarini mustahkamlash, komil insonni tarbiyalash yo'lida munosib hissa qo'shib kelmoqda.

¹⁰ Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch".T.: "Ma'naviyat" 2008.121-122-b

XULOSA

Inson paydo bo'libdiki, tarbiya jaryonini mavjud, tarbiya paydo bo'lgan vaqtdan beri pedagoglik faoliyati uzluksiz davom etib kelmoqda. O'qituvchilik, tarbiyachilik kabi barcha ijtimoiy tuzumlarda sharaflari hamda o'ta mas'uliyatli qiyin va murakkab kasb hisoblanadi.

Mustaqil O'zbekistonimizda uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilinishi, yangi ta'lim standartlari asosida ta'lim va tarbiya jarayonini qayta tashkil etishga kirishilgan hozirgi kunda o'qituvchi faoliyatiga, uning pedagogik mahoratiga alohida e'tabor berilmoqda. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Tarbiyachilarning o'ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma'lumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. Mening fikrimcha ta'lim- tarbiya tizimini o'zlashtirishdagi asosiy muammo ham mana shu yerda. O'qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun. Murabbiyning o'zi ana shunday bilimga aga bo'lishi kerak".

Mamlaka timizda kadrlar tayyorlash milliy dasturini bosqichma- bosqich muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'p jihatdan o'qituvchi faoliyatiga, uning kasbiy nufuzini oshirishga bog'liqdir. Shunday ekan, sog'lom, har tomonlama barkamol avlodni yetishtirish, uzluksiz ta'lim tizimida mehnat qilayotgan pedagogning vazifasiga, tayyorgarligiga va fidoiyligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liqdir. O'qituvchi jamiyatning ijtimoiy topshirig'ini bajaradi, shunday ekan, har tomonlama yetuk mutaxassislarni tayyorlashda o'qituvchi muayyan ijtimoiy- siyosiy, pedagogik va shaxsiy talablarga javob berishi lozim. Shunday ekan, o'qituvchi mustaqillik g'oyasiga e'tiqodi, har tomonlama rivojlangan ilmiy tafakkuri, kasbiga tegishli ma'lumoti, o'z fanini chuqur bilimdoni, pedagogik muloqat ustasi, pedagogik - psixologik va uslubiy bilim va malakalarni egallagan bo'lishi hamda turli pedagogik vaziyatlarni tezda sezishi, o'rganishi va bohalay

olishi. Pedagogik ta'sir ko'rsatishning eng maqbul usul va vositalarini tanlay olish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Mustaqil O'zbekistonning kelajagi bo'lgan sog'lom avlodni tarbiyalash nozik, nihoyatda kata diqqat e'tiborni talab qiladigan, ichki ziddiyatli jarayondir. Shunday ekan, o'qituvchi, o'quvchi va shogirdning shakllanish jarayonini zo'r havas va sinchkovlik bilan kuzatishi talab etiladi. U pedagogik jarayonni boshqarar ekan, pedagogik bilim va mahorat egasi bo'lishi lozim. Shundagina o'qituvchi pedagogik hodisalarning mohiyatini va dialektikasini, pedagogik mehnat metodi, kasb va texnologiyasini va professional pedagogik mahoratni egallay oladi. Pedagogik bilim va mahorat egasi bo'lgan o'qituvchi avval, pedagogika - psixologiya fanining metodologik asoslarini, shaxs rivojlanishi qobiliyatlarini va omillarini, kadrlar tayyorlash milliy dasturining mohiyati, maqsad va vazifalarini bilishi darkor. Ta'lim tizimida mehnat qilayotgan pedagoglarning ko'pchiligi ta'lim va tarbiya jarayonida pedagogik mahoratning zaruriyati va ahamiyatini chuqur anglamoqdadir.

Shu sababli ular o'z mahoratlarini uzluksiz oshirib borishga, hozirgi kunning yuksak talablariga mos zamonaviy bilim va tajribalarni o'zlashtirishga, ijodiy mehnat qilishga intilmoqdalar. Ammo shuni ham e'tirof etishimiz kerakki, o'quv yurtlarida ayrim o'qituvchilar o'z pedagogik mahoratlarini oshira borishning mohiyatini yetarli darajada his qilmaydilar, ta'lim to'g'risidagi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablarini chuqurroq o'rganishga qiziqmaydilar, o'quv jarayonini ilmiyligiga, zamon talablari mosligiga, turmush, amaliyot bilan bog'lanishiga yuzaki qaraydilar, o'qitilayotgan o'quv fanlarining ilmiy - g'oyaviy, tarbiyaviy birligini doimo esda tutmaydilar. Bu esa ular qo'lida ta'lim olayotgan o'quvchilarning bilim darajasi va saviyasining yetarli emasligiga, o'quv dasturlarini o'zlashtirishdan orqada qolishlariga sabab bo'ladi. Bu esa "O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi ziddiyatlar"ga ham sabab bo'ladi.

Uzluksiz ta'lim tizimini amalga oshirish jarayonida yosh avlodni ko'ngildagidek o'qitish va tarbiyalash haqida gap borar ekan, bu g'oyat

murakkab va ko'p qirrali vazifani faqat malakali pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlar bilan amalga oshirish mumkin. Shunday ekan, o'qituvchilik katta san'atdir. Bu san'atga u yoki bu pedagog osongina, o'z-o'zidan erisha olmaydi. Buning uchun o'qituvchilik kasbiga, ya'ni sog'lom avlodni chinakam murabbiy bo'lishga havasi, ishtiyoqi zo'r, zamon talablarini tez va chuqur tushunadigan, o'zining ilmiy, ijtimoiy- siyosiy saviyasini, pedagogik mahoratini izchillik bilan amalga oshira boruvchi, mustaqillik g'oyasi va mafkurasi bilan puxta qurollantirish, haqiqiy vatanparvar va mehnatsevar kishilargina erisha oladilar.

Istiqlol mafkurasi tom ma'nodagi milliy mafkuraga aylanishi uchun, avvalo inson qalbi va ongiga ijodiy ta'sir etadigan tushuncha va tuyg'ular, go'zal va hayotiy g'oyalar tizimini o'zida mujassam etishi lozim. Buning uchun ta'lim –tarbiya tizimidagi har bir o'qituvchi bilim va mahorati bilan odamlarimiz, ayniqsa, yoshlarimizning irodasini baquvvat qilish, iymon-e'toqodini mustahkamlashga xizmat qiladigan ma'naviy muhitni yaratishi darkor. Yuksak ma'naviyat, siyosiy madaniyat, millatning g'oyaviy va mafkuraviy yetukligi - yurt tinchligini saqlashning muhim omilidir. Pedagogik mahorat tug'ma talant yoki nasldan - naslga o'tuvchi xususiyat emas, balki izlanish, ijodiy mehnat mahsulidir. Bu ko'p qirrali pedagogik faoliyat zaminida ijodiy mehnat yotadi. Shuning uchun ham pedagogic mahorat hamda o'qituvchilar uchun standart, ya'ni bir qolipdagi ish usuli emas, balki u har bir o'qituvchining o'z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida tashkil topadi va rivojlanadi. Bu jarayonda ilg'or o'qituvchining pedagogik mahorati va tajribalarini boshqa o'qituvchi o'rganishi, undan ijodiy foydalanishi va o'z faoliyatini ilg'or tajribalar bilan boyitishi zarur. O'qituvchining pedagogik mahorati asosan sinf, auditoriya mashg'ulotlarida yaqqol ko'rinadi. Chunki o'quv mashg'ulotlari o'zining mazmun va mohiyatiga ko'ra o'qituvchining o'quv yurtidagi asosiy ishidir. Shu sababli u ilmiy, g'oyaviy va ommabop bo'lishi, turmush bilan o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi bilan bog'lashi zarur. Pedagogik mahorat o'quvchilarning miyasini fakt va raqamlar bilan to'ldirishdan

iborat bo'lmay, balki shogirdlarga ularni tahlil qilish, turmushdagi zaruriyatini anglash va tegishli xulosalar chiqara bilishni o'rgatishdadir. Endilikda ta'lim tizimining hamma bosqichlarida shaxs rivojlanishini tezlatish dolzarb masala bo'lib qoldi. Buning uchun o'quvchining kechagi yoki bugungi holatiga emas, balki kelgusi imkoniyatiga tayanib, kelajagini hisobga olib ishlashi lozim. Bu jarayonda imkon boricha o'quvchi oldiga uni o'ylashga, fikrlashga da'vat etadigan muammoli vaziyatlarni ko'proq qo'yib va zarur bo'lgan vaziyatlarni yaratib uni izlanishga o'rgatmoq darkor. Mohir, izlanuvchan o'qituvchi shogirdlarini turmushdagi rang-barang voqea va hodisalarni sinchkovlik bilan kutadigan, tahlil qila oladigan, ilmiy-tadqiqot ishiga qiziqadigan, bir umr o'zini o'qitgan fanning sehri bilan yashaydigan qilib tarbiyalaydi. Bunday mohir ustozlarni shogirdlari ham bir umr eslaydilar.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchi talabalar o'rtasida o'zaro jonli til, fikr olishuv, samimiy musosabat, hurmat, asosiy maqsadga erishishda hamkorlik lozim. Mazmuni sayoz, amaliy tajribadan, turmushdan ajralib qolgan, umumiy so'z va quruq nasihatgo'ylikdan iborat bo'lgan, rasmiyat uchun yuzaki o'tkaziladigan dars va boshqa o'quv mashg'ulotlari o'quvchilarning qiziqitirmaydi, ularni ilmiy, g'oyaviy jihatdan yetarli oziqlantirmaydi. Shunday ekan, o'quv mashg'ulotlarini shunday tashkil etish kerakki, uning ta'sirida o'quvchilarda shu fanga hisbatan turli qarashlar, ilmiy tafakkur va e'tiqodlar vujudga kelishi va shakllanishi darkor. Ta'lim tarbiya jarayoni ta'sirchanligining yanada yuksak bo'lishi, avvalo o'qituvchining ilmiy salohiyatiga, yoshlar oldidagi obro'siga, shaxsiy sifatlariga, ilmiy iste'dodiga, ta'lim sohasidagi tajriba va mohorati hamda o'quvchilar bilan o'rnatilgan do'stona munosabatga bog'liqdir. Shuni e'tirof etish kerakki, o'qituvchining obrusi faqat uning o'zi uchungina emas, balki yosh avlodning istiqboli uchun ham muhim ahamiyatga molikdir. Biz har doim ustoz haqida Nizomiy Ganjaviyning quyidagi fikrlarini doimo yodda tutishimiz lozim.

Hamisha yaragil xalq xizmatiga,
Bezak bo'l olamu, odam zotiga.

Milliy istiqlol g'oyalari hamda mustaqillik yillarida sodir bo'layotgan yangiliklarning jonkuyar targ'ibotchisi bo'lgan ziyokor o'qituvchining obro'si, uning yurish- turishida, xulq- atvorida, kiyinishida, oilada, ish joyida, odamlar bilan madaniy muomala qilishida, jamoat joylarida o'zini yaxshi tuta olishida, ayniqsa, so'zlay bilish va nutq madaniyatida o'z ifodasini topadi. Nutqdagi chuqur mantiq va mazmundorlik pedagog uchun zarur sifatdir. Chinakam mahoratli ustoz - o'qituvchining sehrli ma'ruzalarini , aytadigan so'z durdonalarini shogirdlar intizorlik va ishtiyoq bilan tinglaydi. Pedagog obro'si o'z - o'zidan kelmaydi , u muttasil ijodiy izlanish va mehnatning natijasidir.

Davlatimiz rahbari I.Karimov davlat va jamiyat qurulishi akademiasining ochilishi marosimida so'zlagan nutqida: “ Birovni o'qitadigan, tarbiya qiladigan inson avvalo o'zi har tomonlama barkamol bo'lmog'i shart”¹¹ degan fikrlari katta ahamiyatga ega. Bo'lajak mutaxassisni kasbiy mehnat faoliyatiga tayyorlash, uning mehnat bozorida raqobat qila olish qobiliyatini shakllantirish maqsadida ijtimoiy yetuk shaxsni voyaga yetkazish va tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu vazifa insonning talab ehtiyoji, qobiliyati, ruhiy- jismoniy imkoniyatlari hamda ijtimoiy etnik omillar ta'sirini hisobga olgan holda o'quv jarayonini hamda o'quv ishlab chiqarish faoliyati doirasida dasturlashtiriladi va amalga oshiriladi.

Kasb malakasi tushunchasi kasbiy mahorat bilan bog'liq bo'lib, bunda biror bir o'quv yurtini bitiruvchining yuqori darajada kasbiy ko'nikma va malakalarni egallagani tushuniladi. U shaxsning mehnat bozorida egallayotgan kasbi bo'yicha raqobatbardoshligi qay darajada ekanida namoyon bo'ladi. Kasbiy mahorat ishchi kuchlarning yuqori darajada moslashuvchanligi, yangiliklarni tez o'zlashtirishi , yangi ishlab chiqarish sharoitiga qisqa

¹¹ G'aybullayev N.R., Yodgorov R., Mamatqulova P. “Pedagogika ”(oliy o'quv yurti uchun qo'llanma). T.:2005,163-b

muddatda o'ta olishi va faoliyat sohasini mustaqil tanlashi kabi sifatlar bilan belgilanadi. Kasbiy mahorat va layoqat shaxsning shunday sifatlaridiki, ular bo'lajak mutaxassisning hayotiy va mehnat muvaffaqiyatlarini belgilab beradi.

Pedagogik faoliyat samarasi o'qituvchining pedagogik qobiliyati qay darajada shakllanganligiga ham bog'liqdir. Zero "Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi"¹² deb ta'kidlaydi professor M. Ochilov.

Pedagogik qobiliyat va mahorat o'qituvchida osonlik bilan shakllanmaydi. Bu kasbni tanlagan kishi o'z maqsadiga erishish uchun uzluksiz o'qishi, o'rganishi va izlanishi, ijodiy mehnat qilishi, mustaqil yurtimizda bo'layotgan voqelikni tez anglashi va o'z mehnatining mamlakat uchun qanchalik zarurligini chuqur his qilishi zarur. O'qituvchining pedagogik mahorati haqida fikr yuritar ekanmiz, uning ongliligiga, milliy g'oya va mafkuraga sodiqligiga, bilim va fikr doirasini kengligiga, o'z vazifasiga munosabatiga e'tibor bermoq kerak. Ayniqsa, pedagogik mahoratda o'qituvchining fikr doirasi keng bo'lishi zarurligini alohida hisobga olish lozim. Chunki, kishida bilim, fikr mukammal bo'lmasa, u kamolotga erisha olmaydi.

Darhaqiqat, kishi u yoki bu masalani, albatta fikr orqali hal etadi. Shuning uchun pedagogik mahorat sohibi bo'lishga intilgan kishi, shubhasis, doimo o'z bilimini kengaytirishi, o'quvchiga ma'naviy-axloqiy ta'sir etuvchi g'oya va fikrlarni yangilab boorish zarur. Buning uchun ko'p o'qishi, o'rganishi lozim. O'qituvchining pedagogik mahoratiga baho berishda uni ta'limni qay darajada tashkil qila bilishi muhim ahamiyatga egadir.

Uzluksiz ta'limda darslarni mukammal tashkil qilishi o'qituvchining birinchi navbatdagi vazifasidir. Yuqori saviyada o'tilgan mavzular o'quvchilar ongida uzoq saqlanadi, ularning iymon, e'tiqodi va mafkuralarining shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli,

¹² G'aybullayev N.R., Yodgorov R., Mamatqulova P. "Pedagogika" (oliy o'quv yurti uchun qo'llanma). T.:2005,164-b

o'qituvchining ilmiy saviyasi o'z burchiga munosabati, yoshlarga murabbiylik ishtiyoqi, pedagogik mahorati, dastlab dars mashg'ulotlarida ko'rinadi. Fan o'qituvchisining faoliyatiga beriladigan baho darajasini ham dars sifati belgilaydi.

Dars berish san'atini egallashda o'qituvchi uyushtirgan o'quv mashg'uloti, chuqur bilim berish vositasi bo'lishi bilan birga, mustaqil O'zbekistonning ravnaqi, ertangi kunga bo'lgan ishonch, xalqimizning aql-zakovati va mehnatining nimalarga qodirligi, jamiyatning munosib fuqorosi va quruvchisi bo'lish uchun nimalar qilish zarurligini ko'rsatuvchi ko'zgu bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilarimiz o'z murabbiylari darsidan har jihatdan mamnun bo'lsinlar. Ularda romantik orzular uyg'onsin, tafakkuri rivojlansin, amaliy faoliyat, ijodiy qobiliyat, o'qish- o'rganish va mehnatga havas kuchaysin. Ular o'quv mashg'ulotidan so'ng olgan baholari bilan emas, balki bilim va malaka hosil qilganliklarini, ma'naviy oziq olganliklarini his qilsinlar. Ta'limning mazmundor, qiziqarli va tushunarli bo'lishi ustoz bilan shogirdlar qalbini, ruhini bir- biriga mustahkam bog'laydi, ular o'rtasidagi samimiy hurmat va o'zaro ishonchni mustahkamlaydi. Buning uchun o'qituvchi avvalo, o'z fanini va uni o'qitish yo'l- usullarini mukammal o'zlashtirib olishi, o'qituvchi- murabbiyga xos madaniyatning yuqoriligi, o'z shogirdlariga hurmat va muhabbat, ular hayotida qiziqish va ruhiy holatlarni bilish va tushunish, bosiqlik, his- tuyg'ularini boshqara olishlari, tashqi ko'rinishi, kiyinish madaniyatiga e'tibor berishlari, nutq madaniyatining yuqoriligi, jamiyat ishlarida faolliklari, ayniqsa, omma o'rtasida ilmiy- ma'rifiy va ma'naviy- madaniy ishlar targ'ibotchisi bo'lishlari lozim. Shundagina mamlakatning kelajagi bo'lgan o'quvchi yoshlarimiz o'z murabbiylarini nomini zo'r ehtirom, chuqur minnatdorchilik bilan tilga oladilar.

ATAMALAR

Avtokratik - hokimlik, kishining buyruqbozlik, ko'rsatmalr berish va jazolash kabi shakllarda boshqalarda (masalan, o'qituvchining o'quvchigaga) nodemokratik usullardan foydalangan holda ta'sir etishga moyilligi.

Agressivlik – dushmanlik, boshqalarga, atrofdagilarga zarar yetkazish, tajovuz qilish, oqulaylik tug'dirish maqsadida amalga oshiruvchi shaxsning xususiyati.

Amaliy tadqiqotlar - pedagogik jarayonning ayrim jihatlarini chuqur o'rganishga qaratilgan ishlar, pedagogik amaliyot qonunlarini ochish.

Asos - mantiqiy tafakkurning muhim shakli hisoblangan xulosa chiqarishning tarkibiy qismlaridan biri. Narsa va hodisalarning asosi sababiyat qonuni orqali namoyom bo'ladi. Tabiat va jamiyat hodisalarini o'rganish, bilish, tadqiq etish ko'p jihatdan asos va asoslash jarayoniga bog'liq. Umuman ilmda, turmushda, har qanday munozara va muhokamada biror fikrni isbotlash yoki aniq xulosaga kelish uchun foydalaniladigan fikr asos deb yuritiladi.

Autotrening - o'zini- o'zi ishontirish, shaxsning o'zini- o'zi boshqarishga qaratilgan maxsus mashqlar to'plami. Autotrening shaxsning o'z ruhiy holati va xulqini boshqarishda foydalaniladi.

Bayon qilish - o'qituvchi tomonidan o'rganilayotgan material mazmunini izchil so'zlab berish metodi.

Bilish faoliyati - idrok qilish, nazariy fikrlash va amaliy faoliyat borligi.

Boshqarish - tashkil etish, qaror qabul qilishga qaratilgan faoliyat, obyektini o'z xizmat vazifasi doirasida nazorat qilish, tartibga solish, ishonchili axbarotlar asosida tahlil qilish va yakun yasash.

Burch - muayyan axloqiy majburiyatlarni his qilish, uning zarurligini anglash.

Vazifa - maqsad va uni amalga oshirish bosqichlarining oydinlashtirilishi.

Verbal - ifodali, og'zaki.

Gumanizm - 1) insonning insonga bo'lgan muhabbati, uning qadrini hurmat qilish, kishi manfaatlari uchun qayg'urish g'oyalari bilan sug'orilgan va kishilar

o'rtasidagi tenglik, halollik, insoniy munosabat tamoyillariga asoslangan dunyoqarash; 2) insoniylik, insonparvarlik va insonlarning bunyodkorligiga ishonchi.

Davlat ta'lim standarti - uzluksiz ta'limning muayyan bosqichida shaxs (mutaxassis) ning tayyorgarlik darajasi va mazmuniga qoyiladigan minimum talablar.

Didaktika - ta'lim va o'qitish nazariyasi hamda amaliyotining istiqboldagi taraqqiyoti muammolarini ifodalovchi pedagogikaning tarkibiy qismi.

Dolzarblikni asoslash - ta'lim va tarbiya nazariyasi hamda amaliyotining istiqboldagi taraqqiyoti muammolarini o'z vaqtida o'rganish va hal qilish zarurligini ko'rsatish.

Dunyoqarash - shaxsning tafakkur tarzi va yo'nalishini aks ettiruvchi qarashlar, e'tiqodlar va fikr- oylar tizimi.

Idrok etish malakasi – boshqa subyektning xususiyatlarini uning muloqati va muloqatga hozirligini aniqlash uchun zarur bo'lgan kasbiy- pedagogik malaka.

Ijtimoiy idrok etish- kishilar tomonidan ijtimoiy obyektlarning idrok etilishi, tushunilishi va baholanishi.

Izohlash, tushuntirish- og'zaki izoh, yoritilishi lozim bo'lgan turli materiallarni izohlash, isbotlash, tahlil qilish.

Ilmiy muammo (masala)- fan orqali hal qilinadigan asosiy ziddiyatlar.

Individuallik – shaxsning betakror biosotsiologik xususiyatlari.

Intelekt- shaxsning turli faoliyat turlarini muvaffaqiyat bilan o'zlashtirishini beldilaydigan tug'ma va o'zlashma barcha aqliy qobiliyatlar to'plami.

Ishontira olish- axbarot oqimining shaxs tomonidan tanqidli holi, erkin ravishda o'rganishga erishishni ko'zlagan ruhiy ta'sir etish metodi.

Ichki pozitsiya (mavqe) – shaxsning kundalik ehtiyoji bilan uzviy bog'liq va hayotining muayyan davri faoliyatining asosiy mazmuni va yo'nalganligini belgilovchi ijtimoiy ko'rsatkichlar tizimi.

Kasbiy- pedagogik muloqat, pedagog va tarbiyalanuvchilarning o'zaro zichijtimoiy- psixologik aloqasi tizimi bo'lib, uning mazmuni axbarotlar

ayrboshlash, tarbiyaviy ta'sir o'tkazish , kommunikativ vositalar yordamida o'zaro munosabatlarni tashkil etish hisoblanadi.

Kasbiy bilimdonlik- pedagogik faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy tayyorgarlik birligi.

Kasbiy tayyorgarlik- bo'lajak mutaxassisning psixologik, psixofiziologik va jismoniy hamda ilmiy- nazariy va amaliy tayyorgarligi.

Kasbiy madaniyat- insonning olgan bilim va tajribasiga asoslangan malakali harakatlar yoki mehnat faoliyatining mahsulidan bunyod bo'lgan narsalar, o'zgalarga zavq uyg'ota oladigan ijtimoiy hodisa. Shaxsning kasbiy madaniyati bilim, malaka, ko'nikma, qobiliyat, axloqiy va estetik rivojlanish, dunyoqarash , odamlar bilan o'zaro muloqatning usul va shakllari , iste'dodining rivojlanish darajasi kabi faoliyatda amalga oshiriladigan insoniy kuch va salohiyatni o'z ichiga oladi.

Kognitiv- bilish jarayoni.

Kommunikatsiya- kishilarning o'zaro muloqatlarida axborotlar almashish tasnifi.

Konflikt- qarama- qarshi qarashlar, fikrlar to'qnashivi, jiddiy ziddiyat, qizg'in baxs.

Ko'nikma- o'rganish maqsadida qo'lga kiritilgan, beixtiyor, avtomatik tarzda bajariladigan harakat, ko'nikmalar biror harakatni nazoratsiz, avtomatik bajarish qobiliyatlaridir.

Malaka –shaxsning o'zi egallagan bilimlari asosida ularning yangi sharoitda yangiliklar bilan birga, ma'lum bir faoliyatni samarali bajarish qobiliyati.

Maqsad- faoliyat natijasini oldindan fikran belgilash.

Metodika- biror ishni tashkil qilishda maqsadga muvofiq qo'llaniladigan medodlar jami.

Motiv- ma'lum ehtiyojlarni qondirish uchun asos bo'ladigan kishining ichki faoliyat mazmuni.

Muloqatning yetakchi tipi- rivojlanishning ma'lum bir davrda atrofdagi kishilar bilan muomala yetakchilik qiladigan muloqat tipi bo'lib , uning natijasida

shaxsning asosiy sifatlari shakllanadi.

Nazariy bosqich- tadqiqot obyekti to'g'risidagi amaldagi va istiqboldagi tasavvurlar hamda ularga bo'lgan talab o'rtasidagi ziddiyatni yengish.

Nazariy tahlil- pedagogik hodisalarni alohida jihatlari , belgilari, xususiyatlari va o'ziga xosligini aniqlash va tahlil etish.

Obyekt- insonning, subyektning bilish predmeti va faoliyati.

Pedagog- tarbiyachi, dars beruvchi, o'qituvchi.

Pedagogikaning nazariy vazifasi- ilg'or va yangi pedagogik tajribalarni o'rganish.

Pedagogika predmeti- maxsus institutlarda (oila, ta'lim va tarbiya, madaniyat muassasalari) maqsadga muvofiq tashkil etiladigan real, yaxlit pedagogik jarayon.

Pedagogik jarayon- ta'lim muassasalari, uning taraqqiyotini hal qilishga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va tarbiyachilarning maqsadli o'zaro munosabatlari.

Pedagogik malaka- muayyan toifadagi vazifalarni hal qilish imkoniyatiga ega bo'lgan mutaxassisning kasbiy pedagogik tayyorgarligi darajasi va turi.

Pedagogik mahorat- pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish (A.S.Makarenko), pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlari sintezi.

Pedagogik muloqot – ta'lim oluvchilarning maqsadli hamda ularning birgalikdagi faoliyatlari mazmunidan kelib chiqadigan o'zaro aloqalarini o'rganish va rivojlantirish, bir- birini anglash va qo'llab – quvvatlashni tashkil etishning ko'p qirrali jarayoni.

Pedagogik tizim – shaxsni rivojlantirish va yaxlit pedagogik jarayonni birlashtirgan ta'limning o'zaro bog'langan tashkiliy tuzilmasi.

Pedagogning kommunikativ madaniyati - pedagogning kishilar bilan qisqa muddatda muloqat o'rnatish olishi, ular bilan muloqot o'rnatishga bo'lgan doimiy intilishi.

Pedagogik haqqoniylik- o'qituvchining obyektivlik mezon, uning

ma'naviy tayyorgarlik darajasi.

Psixologiya- 1) shaxsning obyektiv borliqni faol aks ettirish jarayonini o'rganuvchi fan; 2) ma'lum bir faoliyat tirining o'zaro shartlangan psixik jaratonlar to'plami; 3) psixika, xarakter xusiyatlari, ko'ngil xazinasini.

Refleksiv malaka- pedagogga nisbatan qo'llaniladigan nazorat baholash faoliyati.

Refleksiya – takrorlash, aks etish, o'z harakatlari va holatlarini tahlil etish.

Ruhiiy pedagogik tayyorgarlik- pedagogning metodologik asoslar va kategoriyalarni, shaxsning ijtimoiylashuvi va taraqqiyot qonunlari, ta'lim va tarbiyaning mohiyati, maqsadi va texnologiyalarini bilishi.

Tadqiqot obyekti- ziddiyat va muammoli vaziyat tug'diruvchi, bilishga qaratilgan ilmiy tahlilga muhtoj obyekt.

Tadqiqot predmeti- bevosita o'rganilishi lozim bo'lgan va amaliy yoki nazariy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadigan obyektning mohiyati, ma'lum bir tomoni, xususiyati.

Takt- misli ko'rilmagan tarzda o'zini tuta bilish.

Ta'lim- 1) shaxsning jismoniy va ma'naviy shakllanishining yagona jarayoni, sotsial etalonlarning ijtimoiy ong sifatida u yoki bu darajada qayd qilingan, tarixan shartlangan ideal timsollarga ongli yo'naltirilgan ijtimoiylashuv jarayoni; 2) muayyan bilimlarni egallash g'oyaviy- axloqiy qadr, malaka, ko'nikma, axloq meyorlariga qaratilgan jamiyat a'zolarining ta'lim- tarbiyasi vazifasini bajaradigan nisbiy mustaqil ta'lim.

Tarbiya- 1) shaxsning ma'naviy va jismoniy holatiga muntazam va maqsadga muvofiq ta'sir etish; 2) pedagogik jarayonda ta'lim maqsadlarini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati.

Taqlid qilish- biror harakat, qiliq, ahd, fikr va hissiyotni takrorlash, aynan o'zlashtirish.

Tafakkur- inson aqliy faoliyatining oliy shakli, insonlarni o'rab olgan dunyodagi o'zaro bog'langan narsa va hodisalarni bilish jarayoni, muhim hayotiy

jarayonlarni his qilish va muammolarni hal qilish, ma'lum bo'lmagan voqea hodisalarni qidirish, kelajakni ko'ra olish.

Temperament – 1) shaxsning psixik faoliyati dinamikasining turli jihatlarini bildiradigan, turg'un individual xususiyatlarning qonuniy munosabatlari; 2) shaxsning dinamik xususiyatlari: intensivlik , tezlik, temp, psixik jarayonlar va holatlar ritmi.

Tizim- qismlarning ma'lum bir bog'lanishlarda, harakatlarning o'ta izchillikda rejali, to'g'ri joylashish tartibi.

O'qituvchi shaxsi- jamiyat hayotida yetakchi o'rin tutuvchi, murakkab shaxs strukturasi ega bo'lgan insonning kasbiy qiyofasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent "O'zbekiston" nashriyot - matbaa ijodiy uyi 2012.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi qonun. 1997., 29 avgust. 5bo'lim, 34modda
4. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", 1997. 29 avgust.
5. Karimov I.A. "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". To'plam.T.: "Sharq", 1997.
6. Karimov I.A. "Tarixiy xotirasiz- kelajak yo'q".T.: "Sharq", 1998.
- 9.Karimov I. A. "Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida ". T.: "O'zbekiston", 1998, 6-jild.
11. Karimov I. A. "Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar". T.: "O'zbekiston", 2000.
12. Karimov I.A. " Barkamol avlod orzusi" . T.: "O'zbekiston", 2000.
13. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch".T.: "O'zbekiston" , 2008.
- 14.G'aybullayev N.R., Yodgorov R., Mamatqulova P. "Pedagogika "(oliy o'quv yurti uchun qo'llanma). T.: 2005.164 b
15. "Umumiy psixologiya" Pedagogika oliy bilimgo'harining talabalari uchun darslik .T.: " O'qituvchi" 1992,151 b
16. Usmonov. R " Saodatnoma" (tanlangan asarlar) .T.: "O'qituvchi" 1995,87 b.
17. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A.,Pardayev A. "Ta'limda innovatsion taxnologiyalar" .T.:2008,146 b
18. Qosimova.Z.H. "Pedagogik mahorat asoslari".T.: "Fan" nashriyoti,6 2 b
19. Padagogika.O'quv qo'llanma. A.Munavvarov tahririda. T.: "O'qituvchi", 1996, 26 .
20. " O'zbek pedagogikasi ontologiyasi ".T.: "O'qituvchi",1995.
21. G'oziyev. E. T.: " Pedagogika psixologiya asoslari",1997.

22. Nazarov .Q. Aksiologiya: “Qadriyatlar falsafasi”. T.: “Ma’naviyat”, 1998.
23. Maxsudova. M. “Muloqot psixologiyasi ”. T.: “ Turon - iqbol” ,2006.
24. Umarov . M. “Psixologiya”.T.: “ Voris- nshriyot”,2012.
25. G’oziyev .G’. “Psixologiya” .T.: “O‘qituvchi”, 2008.
26. Ivanov. I., Zufarova .E.M. “Umumiy psixologiya ” T.: 2008.
27. Ishmuhamedov .R., Abduqodirov., Pardayev. A. “Ta’limda innovatsion texnologiyalar ” T.: “Iste’dod”, 2008.
- 28 . Yo‘ldoshev. U., Mamarajabov .M.,Tursunov. Q. “ Pedagogik veb- dizayn”.T.: “Voriss - nashriyot”, 2013.
29. Ziyomammedov. B. “Pedagogik mahorat asoslari”.T.: “Tib - Kitob”,2009.
30. G‘aybullayev . N., Yodgorova .,Mamatqulova.P., “Pedagogika”.T.:2005.
31. Hoshimov. Q., Nishonova. S.,Inomova. M., Hasanov.R. “Pedagogika tarixi” .T.: “O‘qituvchi”,1996.
32. Ibragimova. X., Abdullayeva. “Pedagogika nazariyasi”.T.: 2008.
33. Mavlonova. R., To‘rayeva. O., Xoliqberdiyev. K. “ Pedagogika”.T.:2008.
34. Hoshimov. K., Nishonova. S. “Pedagogika tarixi”. II- qism.T.:2005.
35. Asqarova .M.O‘., Hayitboyev.M., Nishonov.M.S. “Pedagogika” .T.: “Talqin”,2008.
36. Ziyomammedov. B. “Pedagogika”.T.: 2006.
37. Alqarov. I., Mamatqulova. R., Norqulov.X. “Shaxs va oila tarbiyasining pedagogikasi”.T.: 2008.
38. “Oila pedagogikasi”.T.: “Aloqachi”,2007.
39. Aliyev. A. “Pedagogik madaniyat: metod va mahorat qirralari” Xalq ta’limi, 1992,4 son,10-12 b.
40. Asqarova O‘., Qoraboyeva. Z. “ Pedagogik mahorat asoslari”.T.:2005.
41. Zaxirina. M., Temurova. S.X.,Sharopova. V.G. “O‘qituvchilik ixtisosligiga kirish kursiga metodik ko‘rsatmalar”. T.: “O‘qituvchi”,1990.
42. Ochilov.M. “O‘qituvchi odobi”.T: “O‘qituvchi”,1998.
43. Rajabov.M. “Pedagogika fanining allomalari”.T.: “O‘qituvchi”,1991.